

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

HUQUQSHUNOSLIK FAKULTETI

«JINOYAT HUQUQI» KAFEDRASI

МАЛАКАВИЙ БИТИРУВ ИШИ.

**MAVZU: Surishtiruv organlarining jinoyat-prosessual faoliyatini
takomillashtirish masalalari**

BAJARUVChI: 4-kurs kunduzgi

bo'lim talabasi Axmedova Farangiz

ILMIY RAHBAR: dos. Sh.Hamrayeva

SAMARQAND – 2013

MUNDARIJA

Kirish.....	3-7
1-BOB. Jinoyat proessida surishtiruv organlarining jinoyat-prosessual faoliyatini takomillashtirish.....	8-33
1.1. Surishtiruv organlari jinoyat-prosessual faoliyatining tushunchasi va turlari.....	8-16
1.2. Surishtiruv organlari jinoyat-prosessual faoliyatining dastlabki tergov organlari jinoyat prosessual faoliyatidan farqi.....	17-25
1.3. Surishtiruv organlari jinoyat-prosessual faoliyatining xorij tajribasi.....	25-33
2-BOB. Surishtiruv vazifalarini ijro etish muammolari.....	34-58
2.1. Surishtiruv organlari tomonidan jinoyatning oldini olish yoki unga yo'l qo'ymaslik.....	34-42
2.2. Surishtiruv organlari tomonidan dalillarni to'plash va saqlash.....	42-50
2.3. Surishtiruv organlarining qidiruv faoliyati.....	50-53
2.4. Surishtiruv organlari tomonidan jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy ziyonning qoplanishini ta'minlash muammolari.....	53-58
XULOSA.....	59-60
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	61-64

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyat munosabatlarini yanada demokratlashtirish va yangilash, jamiyatni modernizasiya va isloh etish bosqichiga yetib keldi. Islohotlarning bosh maqsadi ham jamiyat a'zolarining farovon turmushlarini tashkil qilish, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlash bilan uzviy bog'liqdir. Shubhasiz, jamiyat a'zolarining huquq va erkinliklarini ta'minlash tushunchasi nafaqat ularning muayyan ijtimoiy munosabatlardagi faolliklariga huquqiy shart-sharoit yaratishni nazarda tutadi, shuningdek fuqarolarning turli g'ayriqonuniy tajovuzlardan himoya qilish tushunchasini ham o'z ichiga oladi. Zotan, fuqarolarning farovonligini ta'minlash masalasi zamonaviy talqinda "inson huquqlari - ularni himoya qilish" konsepsiyasi doirasida anglanishi mumkin. Ijtimoiy hayotda fuqarolarning huquqlariga qilinadigan eng jiddiy g'ayrihuquqiy tahdid – bu jinoiy tajovuzdir. Shunday ekan, jinoyatchilikka qarshi kurash davlat amalga oshirishi zarur bo'lgan muhim vazifalardan biridir.

Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek, "Har bir davlat tarixida yangi ijtimoiy sifat holatiga o'tish afsuski, korrupsiya va jinoyatchilik kabi jirkanch hodisa bilan birga yuz bergan. Shu bilan birga, jinoyatchilikning o'sishi nafaqat islohotlar yo'liga jiddiy to'siq, balki o'tish davrida belgilangan maqsadlarga erishishga ham qarshi bevosita tahdid tug'diradi"¹.

Bugungi sharoitda jinoyatchilikka qarshi kurash siyosati o'z-o'zidan huquqni muhofaza qiluvchi organlar, xususan, surishtiruv organlari faoliyatining vakolatlarini tartibga soluvchi prosessual-huquqiy normalarni takomillashtirish muammosini dolzarb masalasi sifatida oldingi o'ringa chiqadi. Zero, amaldagi jinoyat-prosessual qonunchiligi surishtiruv organlari faoliyatining tarkibiy-funksional va tashkiliy-strukturaviy asoslarini yetarli va mantiqiy tizimga solgan emasdir. Bu mazkur mavzu doirasidagi muammoning bir ilmiy yo'nalishi bo'lsa, uning ikkinchi yo'nalishi sudga qadar ish yuritish bosqichida, surishtiruv organlari

¹ Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – Б. 88.

jinoyat-prosessual faoliyati jarayoniga jalb etilgan shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini qo'riqlash muammosiga taalluqlidir.

Chunki, jinoyatchilik bilan kurashishda unga jalb etilgan shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini poymol qilmaslik, ularning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish borasida surishtiruv organlari faoliyatida qonundan chetga chiqishdek amaliyotda uchrab turadigan ayrim hollarni bartaraf etishning prosessul-huquqiy va ijtimoiy-ma'naviy mexanizmlar uyg'unligida hal etish muammosi amaliy jihatdan ham, ilmiy nuqtai nazardan ham dolzarb hisoblanadi.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tishimiz o'rinliki, 2007 yil mobaynida O'zbekiston Respublikasida Ichki ishlar vazirligi (keyingi o'rinlarda-IIV) tizimidagi surishtiruv organlari tomonidan 7656 jinoyat ishi qo'zg'atilgan bo'lib¹, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish Departamenti tomonidan soliq va valyutaga oid 52 mingdan ortiq qonun buzilishlari aniqlangan bo'lib, 13530 tasi bo'yicha jinoyat ishlari qo'zg'atildi, 38887 nafar shaxslar ma'muriy javobgarlikka tortildilar. Ko'rilgan choralar natijasida jami 142,9 mlrd. so'm mikdoridagi moddiy zarar va byudjetga qo'shimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar undirildi. Respublikaga noqonuniy olib kirilgan 22,4 mlrd. so'mlik tovar-moddiy boyliklar olib qo'yildi. Xorijiy valyutaning yashirib qolinishi, chetga chiqib ketishi, noqonuniy aylanishi bilan bog'liq 2420ta qonunbuzarliklar fosh etildi².

Mazkur ma'lumotlar surishtiruv organlari faoliyatining jinoyatchilikka qarshi kurashning faqat bir yo'nalishdagi ko'lamining naqadar kengligini aks ettiradi xolos.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligiga erishgandan so'ng, qator davlat tuzilmalarida turli o'zgarishlar sodir bo'ldi va o'z navbatida mazkur o'zgarishlar surishtiruv organlarida ham o'z aksini topdi, biroq surishtiruv organlari to'g'risidagi qonun osti hujjatlaridagi o'zgartish va qo'shimchalar JPKda o'z aksini topmagan. Masalan, 2004 yilda Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo'mitaning surishtiruv

¹ Ўзбекистон Республикаси ИИБ Тергов Бош бошкармасининг архивидан

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2006 йил 5 майдаги “Молия-иқтисодий, солиқ соҳасидаги жиноятларга, жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришга қарши курашишни кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3750-сонли қарори.

vazifalari bilan bog'liq qonunlarga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilib, davlat chegaralarini himoya qilish va terrorizmga qarshi kurashni amalga oshirishda surishtiruv va tezkor-qidiruv faoliyatini olib borish vakolati Milliy xavfsizlik xizmati zimmasiga yuklandi¹. Garchand, ushbu normaning kuchga kirganligiga ancha bo'lgan bo'lsa-da, uning mazmuni JPKda o'z aksini topmaganligi salbiy holatdir.

Bundan tashqari, surishtiruv organlari faoliyatining amaliyotini o'rganish, olimlar tomonidan keltirilgan nazariy qarashlardan kelib chiqib, hozirda jinoyatning oldini olish yoki unga yo'l qo'ymaslik, dalillarni to'plash va saqlash, jinoyat sodir etishda gumon qilinganlarni ushlash va yashiringan gumon qilinuvchilarni hamda ayblanuvchilarni qidirib topish yuzasidan jinoyat-prosessual faoliyati imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayotganligi ushbu mavzu ustida tadqiqot olib borilishining dolzarbligini tasdiqlaydi.

Albatta, mazkur masalalar mavzu doirasiga taalluqli bo'lgan muammolarning ko'lamini nazariy jihatdan asoslangan va ilmiy qiymatga ega yo'nalishni aniqlab olish hamda ular yuzasidan konseptual yechimlarni ishlab chiqishni ham taqazo etadiki, bularning barchasi mavzuning ilmiy jihatdan dolzarbligini yanada oshiradi.

Yuqoridagilar surishtiruv organlari faoliyatiga oid tushunchalarning mohiyatini qayta anglash va mushohada qilish, ushbu faoliyatni amalga oshirish uslub va vositalarini, prosessual munosabatlar mexanizmini takomillashtirish asnosida qayta ko'rib chiqishni taqazo etadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Surishtiruv organlari faoliyatining ayrim jihatlari turli davrlarda tadqiq etilgan bo'lsada, ularning huquqiy maqomi va prosessual faoliyatiga taalluqli talaygina masalalar hozirgi kungacha o'zining nazariy va amaliy yechimini topmagan. Respublikamiz olimlari G'.A. Abdumajidov, Z.F. Inog'omjonova, M.X. Rustamboyev, B.X. Po'latov, Yu.S.

¹ “Ўзбекистон Республикаси айрим қонун ҳужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг 2004 йил 30 апрелдаги 621 II сон қонуни.

Pulatov, M. Xusanov, B.B. Hidoyatov va boshqa olimlarning jinoyat prosessida surishtiruv organlari jinoyat-prosessual faoliyatining ayrim jihatlarini o'rganilgan.

Xorijiy mamlakat olimlari surishtiruv organlarining jinoyat-prosessual faoliyatining ayrim jihatlari ustida maxsus tadqiqot ishlari olib borganlar: A.S. Mirzoyan, Yu.Sh. Saidov, L.M. Dorofeva, V.I. Barilyuk, A.V. Andrushko L.V. Yurchenko, V.V. Vapnyarchuk P.D. Denisyuk, T.K. Biyatov, N.M. Basay, V.N. Grigoryev, A.A. Shishkov, N.A. Kuznesova, D.V. Osipov, B.A. Lukichev, A.S. Yesina, V.M. Lukin, G.D. Lukovnikov, O.A. Poddubnaya, G.I. Sedova, A.B. Sergeyev, G.P.Ximicheva va boshqalar.

Yuqorida sanab o'tilgan mualliflarning ilmiy ishlarida surishtiruv organlari jinoyat-prosessual faoliyatining bir turi sanalmish surishtiruv, uning muddatiga oid muammolarni o'rganish aks ettirilgan.

Tadqiqot ishining maqsadi mamlakatimizda surishtiruv organlarining jinoyat-prosessual faoliyatlariga taalluqli bo'lgan muammolarni qonunchilik va amaliyotdagi, shuningdek xorij davlatlari amaliyotidagi normalari poydevorida o'rganishdan, xususan, surishtiruv organlari faoliyatining mazmun-mohiyati, ularga bo'lgan jamiyatning ehtiyoji, faoliyatni amalga oshirishning prosessual-huquqiy asos va yo'nalishlari, shuningdek surishtiruv organlarining jinoyat-prosessual faoliyatini tartibga soluvchi jinoyat-prosessual qonunchiligi normalarini konseptual jihatdan takomillashtirishga qaratilgan nazariy, huquqiy va tashkiliy asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

- jamiyatdagi ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni liberallashtirish sharoitida surishtiruv organlari prosessual-huquqiy faoliyatini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va yo'nalishlarini belgilash;

- surishtiruv organlari prosessual-huquqiy faoliyatlarini amalga oshirishning nazariy asoslarni ochib beruvchi qarashlarni bir tizimga solish;

- ayrim MDH va xorijiy davlatlar surishtiruv organlari jinoyat-prosessual faoliyatining o'ziga xos jihatlarining tahlili asosida, ularning ijobiy taraflarini

mamlakatimiz jinoyat-prosessual qonunchiligida hamda sud-tergov amaliyotida foydalanish yo'nalishlarini belgilash;

- yuridik adabiyotlar, qonunchilik bazasi va amaliyot asosida jinoyat prosessida surishtiruv organlarini kompleks tarzda o'rganish;
- surishtiruv organlarining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish;
- surishtiruv organlari bilan dastlabki tergov organlari faoliyatining farqi uning chegarasi hamda jinoyat-prosessual faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq muammolarni tahlil qilish;
- surishtiruv vazifalarini ijro etish bilan bog'liq muammolarni tahlil etish va ularning yechimini topish;
- JPKning surishtiruv organlari jinoyat-prosessual faoliyatini tartibga soluvchi normalarini takomillashtirish yuzasidan xulosa va takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot ishning ilmiy yangiligi shundan iboratki, O'zbekiston Respublikasida sud-huquq islohotlari sharoitida surishtiruv organlari faoliyatini takomillashtirish, surishtiruv organlarining jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini, surishtiruv organlar faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish borasidagi fikr va mulohazalar bildirildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundan iboratki, jinoyat-prosessual huquqi nazariyasining rivojlanishiga muayyan hissa qo'shadi. Jinoyat prosessi fanidan ma'ruza o'qishga, JPKning surishtiruv organlari jinoyat-prosessual faoliyatini tartibga soluvchi normalariga hamda surishtiruv organlarining prosessual huquqiy holatini takomillashtirishga va ular yuzasidan qonun loyihasini ishlab chiqishga foydalanish mumkin.

Malakaviy bitiruv ishining tuzilishi kirish, ikki bob, yetti paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

1-BOB. Jinoyat proressida surishtiruv organlarining jinoyat-prosessual faoliyatini takomillashtirish

1.1. Surishtiruv organlari jinoyat-prosessual faoliyatining tushunchasi va turlari

Yuridik adabiyotlarni tahlil qilish va amaliyot materiallarini o'rganib chiqib, suritiruv organlarini jinoyat-prosessual faoliyati yuzasidan alohida, maxsus tadqiqot olib borilmagan, jinoyat prosessi nazariyasida esa surishtiruv organlari jinoyat-prosessual faoliyati tushunchasiga oid yakdil fikr mavjud emas, ularning aksariyatida jinoyat-prosessual faoliyat to'g'risida to'xtab o'tilganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Bunday ta'rifni jinoyat-prosessual qonunidan ham topish mushkul. Garchand, ayrim xorijiy mamlakatlar jinoyat-prosessual qonunchiligida jinoyat-prosessual faoliyatni amalga oshiruvchi surishtiruv organlari ro'yxati aniq tartibda berilgan bo'lsada, ushbu holda surishtiruv organlarining jinoyat-prosessual faoliyati tushunchasiga aniqlik kiritilmagan.

O'zbekiston Respublikasi JPKsi 28, 31, 33, 35, 38, 39-moddalariga muvofiq, jinoyat-prosessual faoliyatni amalga oshiruvchi organ va mansabdor shaxslar sifatida sud, prokuror, tergovchi, tergov bo'limi boshlig'i, surishtiruvchi, surishtiruv organi boshlig'i, surishtiruvchi ko'zda tutilganligining guvohi bo'lishimiz mumkin¹. Biroq, Gruziyaning yangi JPK loyihasida, Moldova va Estoniya JPKlarida jinoyat-prosessual faoliyati subyekti sifatida surishtiruv organi boshlig'i va surishtiruvchi sanab o'tilmagan.

Surishtiruv organlari jinoyat-prosessual faoliyatining tub mohiyatini ochish uchun falsafaning barchamiz uchun ma'lum bo'lgan "umumiylikdan alohidalikka" qoidasiga murojaat qilamiz. Buning uchun dastavval "faoliyat" so'zining mazmunini sharhlashga harakat qilamiz.

Faoliyat so'zi - mashg'ulot, mehnat, biror bir organning ishi, tabiat kuchi

¹ Файзиев Ш.Ф. Некоторые вопросы понятия уголовно-процессуальной деятельности органов дознания // Право и современность: проблемы и пути решения. Материалы конференции молодых ученых, аспирантов и студентов. – Владивосток: Изд-во Дальневост. Ун-та, 2006. – С. 259-261.

ma'nolarida ishlatiladi¹.

Surishtiruv organlari jinoyat-prosessual faoliyati ham muayyan prosessual shakl²da amalga oshiriladi. Jinoyat haqida kelib tushgan ariza va xabarni qabul qilgandan so'ng, jinoyat ishini qo'zg'atish, jinoyat ishini rad etish jinoyat ishini tegishliliga ko'ra o'tkazish va boshqa shu kabi prosessual harakatlar ketma-ketligidan iboratdir.

Surishtiruv prosessual faoliyatning turi sifatida jinoyat-prosessual qonuni asosida jinoyat ishi qo'zg'atilgandan so'ng amalga oshiriladi va tergovchiga o'tkazish bilan tamomlanadi. O'zbekiston Respublikasi JPKning 38-moddasida surishtiruv organlarining quyidagi qat'iy ruyxati berilgan:

1) milisiya

2) harbiy qismlar, qo'shilmalarning komandirlari, harbiy muassasalar va harbiy o'quv yurtlarining boshliqlari-ularga bo'ysunuvchi harbiy xizmatchilar, shuningdek o'quv mashqlari o'gkazilayotgan vaqtda harbiy xizmatga majburlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha; O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari xodimlarining xizmat majburiyatini bajarish bilan bog'liq jinoyatlari yoki qism, qo'shilma, muassasa yoki o'quv yurti joylashgan yerda sodir etgan jinoyatlariga doir ishlar bo'yicha;

3) Milliy xavfsizlik xizmati organlari-qonunga ko'ra ularning yuritishiga berilgan ishlar bo'yicha:

4) O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi jazoni ijro etish tizimini boshqarish organlarining boshliqlari, qamoq tarzidagi jazoni ijro etish muassasalarining, jazoni ijro etish koloniyalari, tarbiya koloniyalari, tergov izolyatorlari hamda turmalarning boshliqlari-shu muassasalar xodimlari xizmatni o'tashning belgilangan tartibiga qarshi jinoyatlarga doir ishlar, xuddi shuningdek

¹ Кузнецов С.А. Большой толковый словарь русского языка. – СПб.: Норинт, 2002. – С. 256.; Словарь русского языка в четырех томах. Изд. 2-е. Т.1. – М.: Русский язык, 1981. – С. 395.; Ожегов С.И. Словарь русского языка. – М.: Русский язык, 1989. – С. 167.; Ожегов С.И. Словарь русского языка. / Под ред. докт. филол. наук, проф. Н.Ю. Шведовой. 14-е изд., стереотип. – М.: Русский язык, 1983. – С. 146.

² Процессуал шакл хақида тўлиқроқ қаранг: Жиноят процесси (Умумий қисм). Дарслик / З.Ф.Иноғомжонованинг умумий таҳрири остида. – Тошкент: Адолат, 2007. – Б. 6.

mazkur muassasalar hududida sodir etilgan boshqa jinoyatlarga oid ishlar bo'yicha;

5) davlat yong'indan nazorat qilish organlari-yong'inlarga doir va yong'inga qarshi qoidalarini buzganlikka doir ishlar bo'yicha;

6) chegarani qo'riqlash organlari-davlat chegarasini buzganlikka doir ishlar bo'yicha;

7) olis safarda bo'lgan dengiz kemalarining kapitanlari;

8) davlat bojxona xizmati organlari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliqqa va valyutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo'linmalari-tegishincha bojxona soliq va valyuta to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikka doir ishlar bo'yicha.

9) Davlat bojxona xizmati organlari

10) Soliq qo'mitasi bozorlar va savdo komplekslar faoliyatini nazorat qilish organlari

Surishtiruv organlari aholiga ancha yaqin hisoblanadi, ular birinchi bo'lib tayyorlanayotgan yoki sodir qilingan jinoyatlarni ochadilar, shuning uchun o'z oldilariga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida tergovning dastlabki bosqichida kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini amalga oshiradilar.

Amaldagi jinoyat-prosessual qonunchiligi surishtiruvning quyidagi vazifalarini belgilab beradi:

1) jinoyatning oldini olish yoki unga yo'l qo'ymaslik;

2) dalillarni to'plash va saqlash;

3) jinoyat sodir etishda gumon qilinganlarni ushlash va yashiringan gumon qilinuvchilarni hamda ayblanuvchilarni qidirib topish;

4) jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy ziyon qoplanishini ta'minlash uchun kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini yuritishdan iborat. (JPKning 339-moddasi).

Kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlari deganda, dalillarni topish va mustahkamlash harakatlarining kechiktirilishi natijasida dalillarni yo'qolishi,

buzilishi, o'zgarishi, shikastlanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan faoliyat tushuniladi. Kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarining ro'yxati jinoyat prosessual qonunchiligi bilan chegaralanmagan. Surishtiruvchi ish uchun ahamiyati bo'lgan izlarni aniqlash va mustahkamlash maqsadida barcha tergov harakatlarni o'tkazish huquqiga ega.

Shunday qilib, surishtiruv bu Jinoyat-prosessual qonuni bilan maxsus vakolatli bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslarning jinoyatlarni ochish, oldini olish va unga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini yuritish faoliyati hisoblanadi.

JPK 339-moddasining 2-qismiga muvofiq, surishtiruv organlari zimmasiga jinoyat alomatlarini va jinoyat sodir etgan shaxslarni topish, JPKning qoidalariga muvofiq tekshirib chiqilgandan so'ng jinoyat ishi yuzasidan dalil tariqasida foydalanish mumkin bo'lgan ma'lumotlarni aniqlash maqsadida ilmiy texnika vositalarini qo'llagan holda zarur choralarni ko'rish yuklatiladi. Ichki ishlar, Milliy xavfsizlik xizmati organlari va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi xuzuridagi Solliq va valyutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo'linmalari bu maqsadda tezkor-qidiruv choralarini ko'rishga ham haqlidirlar. Biroq tezkor-qidiruv natijasida olingan ma'lumotlar dalil sifatida e'tirof etilmaydi. Tezkor-qidiruv natijasida olingan ma'lumotlar dalillar manbasini aniqlashga, tergovning muvaffaqiyatli tugashiga yordam beradi.

Tezkor-qidiruv faoliyatini surishtiruvning ish yurituvchi deb qaralmasligi lozim, chunki u surishtiruv doirasida bo'lsada, prosessual xarakterga ega emas. Surishtiruvning o'zi esa tegishli mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan prosessual faoliyatdir.

Tezkor-qidiruv faolitini surishtiruv tushunchasiga kiritib bo'lmasligining yana bir sababi, surishtiruvning boshqa organlar faoliyati bilan bevosita bog'liq emasligidir.

Surishtiruv organlarining faoliyatini prosessual va tezkor-qidiruv turiga bo'linishi, bir tomondan ularning bog'liqligini, boshqa tomondan esa ularning farqini ko'rsatadi.

Bog'liqligi shundaki, tezkor-qidiruv choralari va surishtiruv jinoyat sudlov ishlarini yuritishning aynan bir xil subyektlari tomonidan amalga oshiriladi va jinoyatchilikka qarshi qaratilgan faoliyatga yo'naltirilgan bo'ladi.

Tezkor-qidiruv choralari surishtiruvga nisbatan yordamchi xarakter kasb etadi. Tezkor-qidiruv faoliyati tegishli normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi. Bunda u prosessual usul va shakllarga amal qilmaydi.

Jinoyat va uni sodir qilgan shaxslardan olingan ma'lumotlar doimiy kuchga ega emas. Bundan tashqari, tezkor-qidiruv choralarini o'tkazish jarayonida jinoyat sudlov ishlarini yuritishda haqiqatni aniqlash va shaxsning huquqlarini himoya qilish bo'yicha prosessual kafolati bo'la olmaydi.

Tezkor-qidiruv harakatlarini o'tkazish jinoyat ishini qo'zg'atishga bog'liq emas. U jinoyat ishi qo'zg'atgunga qadar va undan keyin ham o'tkazilishi mumkin. Tezkor-qidiruv harakatlari surishtiruv va dastlabki tergov organlarining prosessual faoliyati bilan muvofiqlashtiriladi.

Surishtiruv dastlabki tergov faoliyati kabi jinoyat prosessual qonuni asosida amalga oshiriladi. Jinoyat ishi yuzasidan dastlabki tergov va surishtiruv materiallari muhim ahamiyatga ega.

Jinoyat prosessual qonuniga ko'ra, surishtiruvchi jinoyat ishini qo'zg'atganidan keyin yoki prokuror yoxud surishtiruv organining boshlig'i tomonidan qo'zg'atilgan ishni olgach, darhol uni ish yurituviga qabul qiladi va kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini bajarishga kirishadi. Kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlari jinoyat ishi qo'zg'atilganidan keyin o'tkaziladi (hodisa joyini ko'zdan kechirish, ekspertiza tayinlashdan tashqari). Bundan tashqari, jinoyat ishi qo'zg'atgunga qadar gumon qilinuvchiga nisbatan ushlab turish chorasi qo'llanilishi mumkin.

Kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlari jinoyat alomatlari aniqlanishi bilan o'tkaziladi va jinoyat ishini qo'zg'atish haqida qaror chiqariladi. Kechiktirib bo'lmaydigan hollarda jinoyat izlari aniqlanishi va mustahkamlanishi lozim. Chunki izlar manfaatdor yoki boshqa shaxslar tomonidan yo'q qilinishi mumkin, natijada esa jinoyat ochilmasligi va tergov murakkablashuviga olib kelishi mumkin. JPK 339 va 340-moddalarida surishtiruvchi tomonidan jinoyat ishi qo'zg'atilgandan keyin, amalga oshiriladigan tergov harakatlarining ruyxati berilmasligi to'g'ri xal qilingan. Surishgiruvchi surishtiruv va tergov harakatlarini, jumladan: gumon qilinuvchi, guvox va jabrlanuvchini so'roq qilish; yuzlashtirish; tanib olish uchun ko'rsatish; guvoxlantirish; hodisa joyini ko'zdan kechirish; murdani eksqumasiya qilish: eksperiment; olib quyish; tintuv; telefon va boshqa so'zlashuv kurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish; ekspertiza, ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olish; narsalar va hujjatlarni taqdim qilish kabi tergov harakatlarini o'tkazishni boshqa surishtiruvchiga topshirishi mumkin. Shuni qayd qilish kerakki, surishtiruvchi surishtiruv jarayonida shaxsni ayblanuvchi tariqasida jinoyat ishida ishtirokchi sifatida jalb qilishi mumkin emas, shuning uchun ham u ayblanuvchi ishtirokida o'tkaziladigan tergov harakatlarini o'tkaza olmaydi.

Qonunda kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarining muddati belgilangan. JPKning 341-moddasiga muvofiq uning muddati 10 kun. Mana shu kundan kechiktirmasdan surishtiruvchi jinoyat ishini tergovchining yurituviga o'tkazadi. Ushbu muddatning uzaytirilishi qonunda ko'rsatilmagan. Surishtiruvchi ayrim sabablarga ko'ra qonunda ko'rsatilgan muddatda kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini o'tkaza olmasa, bunday holat ishni ushlab turishga va uzoq vaqt tergovchiga o'tkazmaslikka asos bo'lmaydi.

Kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlari jinoyat ishi qo'zg'atilganidan keyin darhol o'tkazilishi kerak.

Surishtiruv organi kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini bajarish yuzasidan, prokuror ko'rsatmalarini va 10 kunlik muddat o'tishini kutmasdan, ishni prokurorga xabar qilgan holda tergovchiga o'tkazishga majburdir.

Qonun belgilagan hollarda surishtiruvchi surishtiruv yuritish muddati o'tishini kutmasdan ishni darhol tergovchiga o'tkazishi lozim, bosharti:

- 1) og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat aniqlangan bo'lsa;
- 2) 2007 yil 29 iyun O'zbekiston Respublikasi ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qonunga muvofiq gumon qilinuvchiga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash yoki muayyan shaxsni ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish uchun asoslar aniqlangan bo'lsa;
- 3) ishni tugatish uchun asoslar aniqlangan bo'lsa;
- 4) tergovchi ishni o'z yurituviga berilishini talab qilgan bo'lsa. (JPKning 342-moddasi).

Surishtiruv faoliyati jinoyat ishini tergovchiga o'tkazish bilan tamomlanadi. Surishtiruvchi ishni tergovchiga o'tkazish haqida qaror chiqaradi. Qarorda uni chiqarilgan joyi va vaqti, qaysi surishtiruv organining surishtiruvchisi ushbu qarorni chiqarganligi, surishtiruvchining ismi va familiyasi ko'rsatilishi kerak.

Qarorning bayon qismida qanday alomatlariga ko'ra jinoyat ishi qo'zg'atilganligi, aniqlangan asoslar va ishni tergovchiga o'tkazilganligi ko'rsatilishi lozim. Qaror surishtiruv organining boshlig'i tomonidan tasdiqlanishi kerak.

Surishtiruv organlari jinoyat-prosessual faoliyatining tub mohiyatini ochish uchun falsafaning barchamiz uchun ma'lum bo'lgan "umumiylikdan alohidalikka" qoidasiga murojaat qilamiz. Buning uchun dastavval "faoliyat" so'zining mazmunini sharhlashga harakat qilamiz.

Faoliyat so'zi - mashg'ulot, mehnat, biror bir organning ishi, tabiat kuchi ma'nolarida ishlatiladi¹.

¹ Кузнецов С.А. Большой толковый словарь русского языка. – СПб.: Норинт, 2002. – С. 256.

Jinoyat-prosessual faoliyat ham ma'lum bir organning faoliyati sifatida tadqiq qilinishi mumkin, masalan: tergov, sud, prokuratura yoki surishtiruv organlarining jinoyat-prosessual faoliyati sifatida.

Faoliyat - subyektning jinoyat prosessidagi ishtiroki bilan bog'liq bo'lib, uning prosessdan ko'zlaydigan umumiy, muntazam va bir-butun prosessual maqsadiga qaratilgan¹.

Faoliyat maqsadga yo'naltirilgan tabiatga ega, ya'ni u shunday faollik turiki, u ongli ravishda qo'yilgan maqsad tomon yo'naltirilgan. Faoliyatning muhim sharti oldindan puxta rejalashtirilganligidadir. Maqsad qo'yilgandan so'ng, inson o'z oldiga qo'yilgan harakatlar vaziyatini tahlil qiladi va maqsadga erishish uchun vosita hamda usullarni tanlaydi².

Barcha faoliyat ma'lum bir o'ziga xos tuzilishga ega, u muayyan ketma-ketlikdagi harakatlarni o'zida mujassamlashtirish bilan o'ziga xosdir, ya'ni, faoliyat o'zida prosessual shaklni aks ettiradi.

Surishtiruv organlari jinoyat-prosessual faoliyati ham muayyan prosessual shakl³da amalga oshiriladi. Jinoyat haqida kelib tushgan ariza va xabarni qabul qilgandan so'ng, jinoyat ishini qo'zg'atish, jinoyat ishini rad etish jinoyat ishini tegishliliga ko'ra o'tkazish va boshqa shu kabi prosessual harakatlar ketma-ketligidan iboratdir.

M.S. Strogovichning ta'kidlashicha, jinoyat-prosessual faoliyat –prosessual qonunda belgilangan tartibda jinoyat prosessi ishtirokchilari sud, prokuratura, tergov va surishtiruv organlari, ayblanuvchi va uning himoyachisi, jabrlanuvchi va uning vakilining jinoyat ishi bo'yicha sodir etadigan harakatlari majmuidir⁴.

¹ Мухитдинов Ф.М. Жиноят процесси: моҳият, мазмун, шакл. – Тошкент: Адолат, 2002. – Б. 128.

² Малахова Л.И. Уголовно-процессуальная деятельность: общие положения. – Воронеж, 2002. – С. 42.

³ Процессуал шакл ҳақида тўлиқроқ қаранг: Жиноят процесси (Умумий қисм). Дарслик / З.Ф.Иноғомжонованинг умумий таҳрири остида. – Тошкент: Адолат, 2007. – Б. 6.

⁴ Строгович М.С. Курс советского уголовного процесса. – М.: Наука, 1968. – Т.1. – С. 29-30.

Jinoyat prosessual faoliyat – jinoyat ishi yuzasidan davlat organlari, shuningdek barcha boshqa ishtirokchilarning bajaradigan prosessual harakatlar tizimidir¹.

S.P. Yefimichevning fikricha, jinoyat-prosessual faoliyat - qonun bilan tartibga solingan va dastlabki tergov organlari, prokuratura, sud va boshqa prosess ishtirokchilarining huquqiy munosabat sifatida muayyan shaklga solingan faoliyati bo'lib, belgilangan jinoyat-prosessual tartibda fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida jinoyatchilikning oldini olish, jinoyat ishlarini ko'rish va jinoyat ish yurituvchi vazifalarini amalga oshirishdan iborat².

Jinoyat-prosessual faoliyat jinoyat ish yurituvchi subyektlarining qonun bilan aniq va mufassal belgilab qo'yilgan, davlat organlarining (surishtiruv, tergov, prokuratura, sud) har birining o'z vakolati doirasida tashkil qiluvchi, yo'naltiruvchi va hal qiluvchi roli sifatida namoyon bo'ladi³.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, “surishtiruv organlarining jinoyat-prosessual faoliyati – bu surishtiruv organlarining huquq va majburiyatlaridan kelib chiqadigan, jinoyat-prosessual qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladigan harakatlari tizimidir”⁴ deb xulosa qilishimiz mumkin.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib surishtiruv organlarining jinoyat-prosessual faoliyatining belgilarini sanab o'tish mumkin, bular 1) surishtiruv organlari jinoyat-prosessual faoliyati –prosessual harakatlar tizimidir; 2) surishtiruv organlari jinoyat-prosessual faoliyati – faqat JPKda nazarda tutilgan faoliyatdir.

¹ Уголовный процесс: Учебник для вузов / Под ред. П.А. Лупинской. – М.: Юрист, 1995. – С. 6.

² Ефимичев С.П. Содержание и структура стадии предварительного расследования // Уголовно-процессуальная деятельность и правоотношения в стадии предварительного расследования. Сб.науч.тр. – Волгоград, 1981. – С. 3.

³ Юридическая процессуальная форма: теория и практика. – М.: Юрид.лит., 1976. – 235 с.

⁴ Файзиев Ш.Ф. Некоторые вопросы понятия уголовно-процессуальной деятельности органов дознания // Право и современность: проблемы и пути решения. Материалы конференции молодых ученых, аспирантов и студентов. – Владивосток: Изд-во Дальневост. Ун-та, 2006. – С. 259-261.

1.2. Surishtiruv organlari jinoyat-prosessual faoliyatining dastlabki tergov organlari jinoyat processual faoliyatidan farqi

Har qanday hatti-harakat ma'lum bir qonunlar bilan tartibga solingani kabi, surishtiruv organlari jinoyat-prosessual faoliyati ham jinoyat-prosessual qonunida belgilangan. Respublika milliy jinoyat-prosessual qonunchiligimiz surishtiruv organlari jinoyat-prosessual faoliyati chegarasini aniq belgilamasligini aniqladik. Kezi kelganda qayd etish o'rinliki, xorijiy mamlakatlarda ham surishtiruv organlari processual faoliyati chegarasi turlicha bo'lib, ularning jinoyat-prosessual qonunchiligida ham bu masala har xil tarzda ifoda etilgan. So'zimizni quyidagi jadval yordamida yorqin asoslab beramiz¹.

Surishtiruv organlari jinoyat-prosessual faoliyati chegarasi nazariyada ham turlicha talqin etilgan, masalan yuridik adabiyotlarda processual chegara to'g'risida turli qarashlar mavjud. Masalan: A.P.Рыжакov surishtiruv organlari jinoyat-prosessual faoliyatining besh ko'rinishini sanab o'tadi ular: 1) Jinoyat to'g'risida ariza, xabarni dastlabki tekshirish; 2) Bayonnoma shaklda ishni sudga qadar tayyorlash; 3) Kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlari ko'rinishida surishtiruv; 4) To'liq hajmdagi surishtiruv; 5) Tergovchining topshiriq (ko'rsatmalarini) bajarish².

Ushbu olimning fikri ilgari amalda bo'lgan Rossiya Federasiyasining Jinoyat-prosessual kodeksiga muvofiq berilgan bo'lib, hozirda u eskirgan hisoblanadi, lekin bizning tadqiqot ishimizda nazariy ahamiyatga ega, chunki, surishtiruv organlari processual faoliyatining umumiy jihatlari aynan shular hisoblanadi.

N.A. Kuznesova va D.V. Osipovlar fikricha milisiya surishtiruv organi sifatida quyidagi jinoyat-prosessual funksiyalarni amalga oshiradi: 1) Jinoyat to'g'risida ariza (xabar)ni ko'rib chiqish va hal etish; 2) Kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini amalga oshirish; 3) Tergovchining topshirig'iga binoan

¹ Диссертациянинг иловасида келтирилган 1-жадвалга қаранг, 198-бет.

² Рыжакov A.П. Органы дознания в уголовном процессе. – М.: Городец, Формула права, 1999. – С. 51-52.

kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini va tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirish; 4) Tergovchilarning alohida tergov harakatlarini amalga oshirish chog'ida ularga ko'maklashish; 5) Surishtiruvni yuritish¹.

Ushbu olimlarning fikrlari birmuncha munozarali hisoblanadi, chunki hozirgi kunga qadar jinoyat prosessi nazariyasida besh, olti, asosiy va qo'shimcha funksiyalar bor xolos. Ushbu ikki olim fikrining qanchalik to'g'riligini aniqlash maqsadida jinoyat prosessi nazariyasida funktsiya va unga qo'yilgan talablarga to'xtalish zarur.

O'zbekiston olimlari ushbu masala yuzasidan quyidagi fikrni bildiradilar: "surishtiruv organlarining jinoyat-prosessual faoliyati quyidagilarni o'z ichiga oladi: jinoyatlar haqidagi ariza (xabar)larni ko'rib chiqish va hal qilish; jinoyat ishini qo'zg'atish uchun boshqa sabablarning mavjudligi sababali tekshiruv harakatlari, surishtiruv o'tkazish; tergovchilarning topshirig'i bo'yicha qidiruv va tergov harakatlarini amalga oshirish; tergovchilarning o'zlari o'tkazadigan ayrim tergov harakatlarida ishtirok etish"².

B.B. Hidoyatov surishtiruv organlari funksiyalariga quyidagilarni kiritadi: 1) jinoyatlar to'g'risida ariza va xabarlarini ko'rib chiqish va hal etish; 2) surishtiruvni yuritish; 3) tergovchining topshirig'iga binoan alohida tergov harakatlarini amalga oshirish; 4) tergovchi tomonidan bajarilayotgan tergov harakatlariga yordam ko'rsatish³.

Yuqorida vatandosh olimlarimiz tomonidan surishtiruv organlarining faqatgina ayrim prosessual faoliyati sanab o'tilganligi bois, surishtiruv organlari jinoyat-prosessual faoliyatining aniq chegarasi belgilanmagan deb hisoblaymiz.

O'z davrining mashhur prosessualist olimi M.S. Storogovich ham surishtiruv va dastlabki tergov o'rtasidagi o'zaro munosabat haqida to'xtalib shunday degan,

¹ Кузнецова Н.А., Осипов Д.В. Процессуальная деятельность милиции общественной безопасности по уголовным делам // Юридический консультант. – Москва, 2003. – № 3. – С. 21.

² Ўзбекистон Республикасининг жиноят процесси. Дарслик / Б.А. Миренский, А.Х. Рахмонкулов, ва бошқ. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академиясининг нашрилик маркази. 2004.. – 280 б.

³ Хидоятлов Б.Б. Допрос в Республике Узбекистан. Учебное пособие. Под общей редакцией проф. Абдумажидов Г.А. – Ташкент: ТГЮИ, 2005. – С. 98.

jinoyat-prosessual qonunchiligini tayyorlashda surishtiruv va dastlabki tergov jinoyat prosesining “juda qiyin va mashaqqatli” hatto “og’riqli” mavzusi sanalgan¹.

Shu o’rinda savol tug’iladi qonun chiqaruvchi jinoyat ishlarini tergov qilishni dastlabki tergov va surishtiruv shakliga bo’lishiga nima sabab bo’lgan? Nega tergov qilish bir shaklda olib borilmaydi? Mazkur savolga javob topish uchun A.B. Sergeyevning tadqiqot ishiga e’tiborimizni qaratamiz, unda shunday deyilgan: Rossiyada, (O’zbekiston va qator MDH malakatlarida ham shunday-Sh.F.) kontinental Yevropa, Angliya va Amerikadan farqli o’laroq, ma’muriy organlar dastlabki tergovni yuritish huquqiga ega. Buning sabablari hammaga ayon.

Birinchi sababi-iqtisodiy xususiyatga ega. Sodir etilayotgan jinoyatlarning katta miqdori, xodimlari jinoyatlarni faqat tergov qilish bilan shug’ullanadigan tergov apparatini saqlashga ko’pgina xarajatlar talab qilinishi. Jinoyat ishlarning bir qismini ma’muriy organlarga topshirish esa, bu masalani qisman hal qilishga imkon beradi. Ikkinchidan, qonun chiqaruvchi, ushbu davlat organlarining mansabdor shaxslari, odatda bajariladigan funksiyalari bilan birga, o’zlari huquqiy tartibga rioya qilish funksiyalarni amalga oshiradigan sohada sodir etilgan jinoyatlarni yuritish va tergov qilishlari mumkinligidir².

Fikrimizcha, bunday bo’linish nafaqat davlat byudjetidagi mablag’larni tejash, balki katta miqdordagi jinoyat ishlarini tez hal bo’lishiga olib keladi bu esa o’z navbatida fuqarolarning konstitusiyaviy huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga yordam beradi. Masalan, JKda nazarda tutilgan ayrim uncha og’ir bo’lmagan va ijtimoiy xavfi katta bo’lmagan jinoyatlar yuzasidan uch oy tergov olib borilishi shart emas, 10 kunlik surishtiruv muddatining o’zi yetarlidir, Ushbu holatni xususan yarashuv to’g’risidagi ishlar yuzasidan aytib o’tish mumkin.

¹ Строгович М.С. К подготовке проекта Уголовно-процессуального кодекса СССР // Социалистическая законность. – Москва, 1946. – № 7. – С. 7.

² Сергеев А.Б. Проблемы процессуальной деятельности органов дознания: Дис. ... канд. юрид. наук. – Екатеринбург: Уральская государственная юридическая академия, 1999. – 48 с.

Surishtiruv organlari prosessual faoliyati dastlabki tergovga nisbatan belgilanishi lozim deb o'ylaymiz, chunki chegara aynan dastlabki tergov organlari funksiyalaridagi farqdan kelib chiqadi.

Prosessual shaklni takomillashtirish yuzasidan ko'p fikr mulohazalar bildirilgan. Jukabayev A.A. fikricha, hozirgi kunga kelib, qator surishtiruv organlari xodimlari dastlabki tergov va surishtiruv o'rtasida farq qolmagan deydi, chunki surishtiruv va dastlabki tergov bir funksiyani bajaradi, ularning farqli jihati bo'lib faqat surishtiruvchining prosessual mustaqilligining chegaralanishini misol qilish mumkin¹.

Shu o'rinda JPKning 336-moddasiga e'tiborni qaratish lozim, unda "prokuror ... dastlabki tergov olib borish uchun tergovchiga yoki surishtiruv olib borish uchun surishtiruv organi boshlg'iga yuboradi" deyilgan, demak milliy qonunchiligimiz ayrim xorijiy davlatlar jinoyat-prosessual qonunchiliklaridan farqli o'laroq surishtiruvni dastlabki tergov olib borishdan alohida sanab o'tilgan² ma'lumki surishtiruv va dastlabki tergovga ajratilgan, demak ular bir nomda aytilishi mumkin emas, bizning milliy qonunchiligimiz bunga yo'l qo'ymaydi.

Surishtiruv organlarining jinoyat-prosessual faoliyati qator olimlarning tadqiqot obyekti bo'lgan. Masalan, A.B. Sergeyev, o'zining tadqiqot ishida surishtiruv organlarining prosessual faoliyatini yoritishda quyidagilarga e'tibor bergan: surishtiruv organlarining kelib chiqishi va rivojlanish tarixi, surishtiruv tushunchasi, mazmuni, surishtiruv organlari faoliyatida jinoyatlarni tergov qilish, surishtiruv organlari mansabdor shaxslarining prosessual faoliyatini huquqiy tartibga solish, tergovga tegishlilik muammolari, surishtiruv organlari faoliyati prosessual shaklini differentsiasiyalash muammolari va boshqalar³.

¹ Жукобаев А.А. Органы предварительного расследования в системе МВД Республики Казахстан // Вестник Карагандинского юридического института Министерства внутренних дел Республики Казахстан. Выпуск 2 (10). – Караганда, 2004. – С. 87.

² Айрим хорижий мамлакатларда хусусан Россия Федерацияси Жиноят-процессуал кодексининг 151-моддасида дастлабки тергов ва суриштирув бир маънода ишлатилган; Қозоғистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексининг 7-моддасида дастлабки тергов ва суриштирув бир маънода ишлатилган.

³ Сергеев А.Б. Проблемы процессуальной деятельности органов дознания: Дисс. ... канд. юрид. наук. – Екатеринбург: Уральская государственная юридическая академия, 1999. – С. 2.

G.I. Sedova surishtiruv organlarining faqatgina prosesual faoliyatini emas, kriminalistik faoliyatini ham tadqiq qilgan, tadqiqot obyektimiz surishtiruv organi jinoyat-prosesual faoliyati bo'lgani bois shu qismiga to'xtalib o'tishni joiz, deb bildik. Surishtiruv organlari faoliyatining tashkiliy huquqiy asoslari, Rossiyada surishtiruvning rivojlanishi va uning tushunchasi, surishtiruv tergov qilish shakli sifatida, uning funksiyalari va jinoyatchilik bilan kurashda vazifalari, Rossiya Federasiyasining jinoyat prosesida bayonnoma shaklida materiallarni sudga qadar tayyorlash tezlashtirilgan ish yurituv shakli sifatida o'rganilgan¹.

Ko'rinib turganidek, ushbu olima surishtiruv organlari prosesual faoliyatining ayrim jihatlarida to'xtalib o'tgan xolos va biz u bilan kelisha olmaymiz. Fikrimizcha, G. P. Ximicheva o'zining "Dosudebnoye proizvodstvo po ugolovnym delam: koncepsiya sovershenstvovaniya ugolovno - prosesualnoy deyatel'nosti" nomli tadqiqot ishida surishtiruv organlari bilan birgalikda dastlabki tergov organlarining ham prosesual faoliyatini atroflicha o'rgangan va yuqoridagi olimlardan farqli o'laroq: quyidagilarga to'xtalib o'tgan: ishni sudga qadar yurituvchi organlarning jinoyat-prosesual faoliyatini o'rganishda ishni sudga qadar yuritishning nazariy asoslari va jinoyat-prosesual faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasiga² e'tibor bergan. Biz G.P. Ximichevaning fikriga qo'shilamiz, chunki u yuqoridagi olimlardan farqli o'laroq surishtiruv organlari jinoyat-prosesual faoliyatining e'tibordan chetda qolgan jihatlarini o'rganibgina qolmasdan, uni atroflicha tahlil qilgan hamda unga yetarlicha katta ahamiyat bergan. Balki bu doktorlik dissertasiyasiga berilgan tadqiqot hajmining kattaligi bilan belgilanishidir.

Jinoyat-prosesual faoliyat jinoyat ishini qo'zg'atish bilan boshlanadi³, deydi L.M. Volodina, lekin biz bu fikrga qo'shila olmaymiz bizning fikrimizcha,

¹ Седова Г.И. Процессуальные и криминалистические проблемы деятельности органов дознания: Дис. ... канд. юрид. наук. – Саратов, 2000. –С. 2.

² Химичева Г.П. Досудебное производство по уголовным делам: концепция совершенствования уголовно-процессуальной деятельности. Дис... докт. юрид. наук. – М.: МГУ, 2003. – С. 2.

³ Володина Л.М. Новые проблемы возбуждения уголовного дела // Актуальные вопросы уголовного процесса современной России: Межвузовский сборник научных трудов. – Уфа: РИО БашГУ, 2003. <http://kalinovskiy-k.narod.ru/b/ufa20033/11.htm>

prosessual faoliyat jinoyatga oid ariza va xabarlarini qabul qilishdan boshlanadi. Chunki, amaldagi JPKning 329-moddasi “Jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma’lumotlar ro’yxatga olinishi va darhol yoki uch sutkadan kechiktirmasdan, jinoyat ishini qo’zg’atish uchun sabab qonuniyligini va asoslar yetarli ekanligini bevosita yoki surishtiruv organlari yordamida tekshirish zarurati bo’lgan taqdirda, o’n sutkadan kechiktirmasdan ko’rib chiqilishi lozim” deb surishtiruv organlariga majburiyat yuklagan.

JPK surishtiruv organlarining prosessual faoliyatini qat’iy belgilab bermagan bo’lib, uning aniq doirasini belgilash uchun yuqoridagi surishtiruv organlarining prosessual faoliyati tushunchasidan kelib chiqadigan bo’lsak, surishtiruv organlarining qonunda nazarda tutilgan harakatni o’zida ifoda etgan har bir faoliyati tushuniladi.

Jinoyat-prosessual qonunchilikka e’tiborimizni qaratadigan bo’lsak, u yerda surishtiruv organlarning jinoyat-prosessual faoliyatiga quyidagi 22 prosessual harakatlari kiritilgan: jinoyat ishini qo’zg’atish (321-moddasi); jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma’lumotlarni ko’rib chiqish (329-moddasi); jinoyatga oid ariza va xabarlarini qabul qilish va ularni hal etish (329-moddasi); 1) jinoyat ishini qo’zg’atish haqida; 2) ishni qo’zg’atishni rad qilish haqida; 3) ariza yoki xabarni tergovga tegishliligiga qarab yuborish haqida qaror chiqarish (330-moddasi); ishni birlashtirish va ajratish (332-moddasi); jinoyat ishini ish qo’zg’atilganidan keyin yuborish (336-moddasi); surishtiruv yuritishni: 1) jinoyatning oldini olish yoki unga yo’l qo’ymaslik; 2) dalillarni to’plash va saqlash; 3) jinoyat sodir etishda gumon qilinganlarni ushlash va yashiringan gumon qilinuvchilarni hamda ayblanuvchilarni qidirib topish; 4) jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy ziyon qoplanishini ta’minlash orqali amalga oshirish (339-moddasi); jinoyat ishlarini sudga qadar yuritish (9-bo’lim); tezkor-qidiruv choralarni ko’rish (339-moddasi)¹;

¹ Tezkor-qidiruv faoliyatini jinoyat-prosessual faoliyatiga kiritish kiritmaslik bu ham bir muammoviy masalalardan hisoblanadi. Chunki, bizda hali xanuz “Tezkor-qidiruv faoliyati tўғrisida” qonun qabul qilinmagani bois uni ЎЗР ЖПКнинг 339-moddasi қайси органлар шу фаолият билан шуғулланиши айтиб ўтилган.

kechiktirib bo'lmaydigan tergov hakatlarini bajarish(339-modda); surishtiruvni tamomlash (342-modda); tergovchining tergov va qidiruv harakatlarini bajarish to'g'risidagi topshiriqlarini uning ijro etish shartlari, tartibi va muddatlari xususidagi ko'rsatmalariga muvofiq bajarish (343-modda); tergovchining ayrim tergov harakatlarini yuritishda yordam berish (343-modda); tergovchiga jinoyat ishi uchun daliliy ahamiyatga ega bo'lishi ehtimol tutilgan hujjatlar va boshqa materiallarni tanishib chiqish yoki ishga qo'shib qo'yish uchun taqdim qilishi (343-modd); shaxsni jinoyat ishida gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to'g'risida qaror chiqarish. (360-modda); yarashuv to'g'risidagi ariza yuzasidan ishni sudga yuborish to'g'risida qaror chiqarish (584-modda).

Surishtiruv organlari prosessual faoliyati muayyan muddatlar bilan chegaralangan. Masalan, JPK 329-moddasiga muvofiq jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlar ro'yxatga olinishi va darhol yoki uch sutkadan kechiktirmasdan ko'rib chiqilishi lozim, jinoyat ishini qo'zg'atish uchun sabab qonuniyligini va asoslar yetarli ekanligini bevosita yoki surishtiruv organlari yordamida tekshirish zarurati bo'lgan taqdirda, o'n sutkadan kechiktirmasdan ko'rib chiqilishi lozim, bundan tashqari surishtiruv 10 kundan oshmagan muddatda tamomlanishi lozim.

JPK yuqorida sanab o'tilgan birgalikda, surishtiruvchiga quyidagi vakolatlarni bergan: jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish bilan bir paytda xabarni huquqni buzgan shaxsga nisbatan ma'muriy, intizomiy javobgarlik yoki jamoat ta'sir choralari qo'llash uchun huquqni buzgan shaxs ishlaydigan yoki o'qiydigan joy ma'muriyatiga, uning turar joyidagi jamoaga, jamoat birlashmasiga yoki voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyaga, tegishli vakolatlarga ega bo'lgan davlat organi yoki mansabdor shaxsga yuborish. (JPKning 334 - modda)

Ko'rinib turganidek, yuqorida sanab o'tilgan JPK tomonidan surishtiruv organlariga nechog'li mas'uliyatli vazifalar yuklangan. Tadiqiqot obyekti surishtiruv organlarining jinoyat-prosessual faoliyati ularning har birida to'xtalib

o'tish bir emas, balki o'nlab tadqiqot ishlarini talab qilgani va Respublikamizda surishtiruv organlarining jinoyat-prosessual faoliyatining bir turi hisoblanmish surishtiruv mavzusi yetarlicha tadqiq qilinganligi bois¹, surishtiruv organlari jinoyat-prosessual faoliyatining tadqiq qilinmagan qirralariga to'xtalib o'tamiz. Ulardan eng dolzarblisi bo'lib surishtiruv organlari yurituviga tegishli jinoyat ishlarni aniqlashdir. Bu to'g'rida keyingi paragraflarda to'xtalib o'tamiz.

Demak, surishtiruv organlarining jinoyat-prosessual faoliyati faqatgina surishtiruvni yuritishdan iborat emas. Buni surishtiruvga berilgan mualliflik ta'rifidan kelib chiqib ham ko'rish mumkin surishtiruv bu – avvalambor, jinoyatning oldini olish, uni ochish maqsadida kechiktirib bo'lmaydigan barcha tergov harakatlarini amalga oshiradigan va faqat jinoyat-prosessual qonun bilan tartibga solinadigan davlat organlari va mansabdor shaxslarining faoliyatidir².

Shu o'rinda asosli e'tiroz kelib chiqishi mumkin, JPKning 330-moddasida sanab o'tilgan uch turdagi qaror qabul qilishni surishtiruv organlari prosesual faoliyati tarkibiga kiritish mumkinmi ?

Ushbu savolga, surishtiruv organlari qabul qiladigan qarorlarini ularning prosesual faoliyati doirasiga kiritish mumkin deb javob berish mumkin. Chunki, prosesual harakatlar majmui surishtiruv organlari jinoyat-prosessual faoliyatining asosini tashkil etsada, ularning jinoyat-prosessual faoliyati faqatgina prosesual harakatlardan emas balki, prosesual qarorlar qabul qilish bilan ham belgilanadi, ya'ni prosesual qarorlar qabul qilish Jinoyat-prosessual kodeksida nazarda tutilgan harakatlar bilan tuziladi, shuning uchun prosesual qarorlar qabul qilish ushbu faoliyatning tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bois JPKning 330-moddasida nazarda tutilgan uch turdagi qaror qabul qilishni prosesual faoliyat tarkibiga kiritsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

¹ Очилов Т.Р. Производство дознания по дорожно-транспортным происшествиям подразделениями Госавтоинспекции. – Ташкент: Адолат, 2000; Хидоятлов Б.Б. Проблемы регулирования дознания в Республике Узбекистан: Автореф. дис... канд. юрид. наук. – Ташкент, 2002. – 26 с: Файзиёв Ш.Ф. Жиноят процессида суриштирув. Илмий-амалий қўлланма / ю.ф.д. Б.Х. Пўлатовнинг умумий таҳрири остида. - Тошкент: ТДЮИ, 2006. – 318 б.

² Файзиёв Ш.Ф. Жиноят процессида суриштирув. Илмий-амалий қўлланма / ю.ф.д. Б.Х. Пўлатовнинг умумий таҳрири остида. - Тошкент: ТДЮИ, 2006. – Б. 15.

А.П.Рыжакوف терговчининг процессуал фаолияти фақатгина процессуал ҳаракатлар эмас balki, процессуал қарорлар қабул қилиш ҳамдир дейди. Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, barcha tergov harakatlari процессуал, lekin процессуал ҳаракатларнинг barchasi ham tergov harakati emasdir. Agar jinoyat-процессуал қонунда белгиланган ҳаракат dalillarni yig'ishga qaratilmagan ekan, u baribir процессуал ҳаракат hisoblanadi¹.

Ushbu paragrafга xulosa qilib shuni aytish lozimki, surishtiruv organlarining jinoyat-процессуал фаолияти фақатгина surishtiruvni yuritish bilan chegaralanib qolmasdan JPK ushbu organlarga 25 yaqin процессуал hatti-harakatlarni yuritishni yuklagan.

1.3. Surishtiruv organlari jinoyat-процессуал faoliyatining xoriј tajribasi

O'zbekiston Respublikasida surishtiruv organlarning asosi Rossiya qonun hujjatlaridan kelib chiqqanligi bois², ko'proq MDH jinoyat-процессуал қонunchiligini tahlil qilishni joiz deb bildik.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng, qator mustaqil davlatlar ichida birinchi bo'lib, 1994 yil 22 sentyabrda Jinoyat-процессуал kodeksi (keyingi o'rinlarda JPK)ni қабул qildi. Bu albatta ijobiy holdir. Yuqoridagi fikrni quyidagi ayrim ma'lumotlar bilan asoslaymiz: Qozog'iston Respublikasining JPK 1997 yil 13 dekabr³, Armaniston Respublikasining JPK 1998 yil 1 iyul⁴, Qirg'iziston Respublikasining JPK 1999 yil 30 iyun⁵, Belarus Respublikasining JPK 1999 yil 16 iyul⁶, Ozarbayjon Respublikasining JPK 2000

¹ Рыжакوف А.П. Следственные действия (понятие, виды, порядок производства): – М.: Юридическая фирма Контракт, ИНФРА М, 2001. – С. 2.

² МДХ суриштирув органларининг асоси ҳам Россия ҳудудида илгари амалда бўлган қонун ҳужжатлари ҳисобланади. Муаллиф ушбу фикрга собиқ иттифоқ давлатларнинг ЖПКларини таҳлил қилиш асосида келди. Батафсил қаранг: Калиновский К.Б., Файзиев Ш. Ф. Уголовный процесс зарубежных стран. Под ред. д.ю.н. проф. М.Х. Рустамбаева. – Тошкент: ТГЮИ, 2007. – С. 117.

³ Қозоғистон Республикаси ЖПК: Интернет веб манзили: <http://www.cis-legal-reform.org>

⁴ Арманистон Республикаси ЖПК: Интернет веб манзили: <http://www.parliament.am>

⁵ Қирғизистон Республикаси ЖПК: Интернет веб манзили: <http://www.cis-legal-reform.org>

⁶ Белоруссия Республикаси ЖПК: Интернет веб манзили: <http://www.cis-legal-reform.org>

yil 14 iyulda¹, Rossiya Federasiyasining JPK 2002 yil 1 iyuldan² kuchga kirgan. Moldova Respublikasining JPK 2003 yil 12 iyundan³ kuchga kirgan. Shu o'rinda, Tojikiston (1961 yil 17 avgustda qabul qilingan), Turkmaniston (1961 yil 22 dekabrda qabul qilingan), Ukraina (1960 yil 28 yanvarda qabul qilingan) kabi davlatlarda mustaqillik e'lon qilinganidan so'ng, hali hanuz yangi JPK qabul qilinmaganligini⁴ ta'kidlash o'rinli bo'ladi⁵.

Surishtiruv organlari tizimi, ularning jinoyat-prosessual faoliyati MDH jinoyat-prosessual qonunchiliklarida turlicha tartibga solingan.

Armaniston Respublikasi JPKning 56-moddasiga muvofiq: 1) polisiya; 2) harbiy qism, qo'shilma komandirlari va harbiy tashkilot boshliqlari; 3) yong'injan nazorat qilish organi; 4) soliq organlari; 5) bojxona organlari; 6) milliy xavsizlik organlari surishtiruv organi hisoblanadi⁶. JPKda surishtiruv organlarining jinoyat-prosessual faoliyatini tartibga soladigan yagona norma mavjud emas. Armaniston Respublikasida surishtiruv O'zbekiston Respublikasi surishtiruv shaklidek o'n kunlik muddatda surishtiruv organi boshlig'i tomonidan jinoyat ishini tergovchiga o'tkazish bilan tamomlanadi, bundan tashqari surishtiruv muddati tugashi bilan; surishtiruv muddati o'tishidan ilgari jinoyat sodir qilgan shaxs aniqlangan bo'lsa; tergovchi yoki prokuror tomonidan ish talab qilib olingan bo'lsa surishtiruv tamomlanadi. Armaniston Respublikasidan farqli ravishda surishtiruvning o'zbek modelida yarashuv bo'yicha jinoyat ishini tugatish imkoni mavjud.

Belarus Respublikasi JPKning 37-moddasida surishtiruv organlari sanab o'tilgan. 1. Qonun bilan surishtiruv yuritish huquqi berilgan davlat organlari va mansabdor shaxslariga quyidagilar kiradi: 1) Milisiya organlari; 2) Davlat xavfsizlik organlari; 3) Harbiy qism va qo'shilmalarning komandirlari, harbiy

¹ O'zbarbayjon Respublikasi JPK: Internet veb manzili: <http://nadzor.pk.ru>

² Rossiya Federatsiyasi JPK: Internet veb manzili: <http://www.plyushkin.fromru.com>

³ Moldova Respublikasi JPK: <http://www.cis-legal-reform.org/document.asp?id=7192>

⁴ Internet veb manzili: <http://nadzor.pk.ru>; <http://www.cis-legal-reform.org>

⁵ Файзиев Ш.Ф., Хидоятов Б.Б. Основные этапы законодательного регулирования дознания в Республике Узбекистан // Международная Конференция “Эволюция уголовного судопроизводства на постсоветском пространстве: сравнительно-правовой аспект”. 22-23 июня 2006 года. – Киев, 2006. – С. 131.: Интернет манзили: <http://iuaj.net/modules.php?name=Pages&go=page&pid=81>

⁶ Арманистон Республикаси ЖПК: <http://www.parliament.am>

muassasalar va garnizon boshliqlari – ularga bo'ysunuvchi harbiy xizmatchilar; 4) Ozodlikdan mahrum qilish ko'rinishidagi jazoni ijro etish muassasasi, tergov izolyatorlari boshliqlari; 5) Davlat chegara qo'shinlari organlari; 6) Bojxona organlari; 7) Moliya tergov qilish organlari; 8) Davlat yong'indan nazorat qilish organlari; 9) Belarus Respublikasidan tashqarida bo'lgan dengiz yoki kema kapitanlari, havo kema kapitanlari; 10) Belarus Respublikasining diplomatik va konsullik muassasasi rahbarlari.

JPKning 37-moddasi surishtiruvning ikki shaklini belgilab bergan, bundan tashqari JPKning 186-modda dastlabki tergov yuritilishi shart bo'lgan jinoyat ishlari yuzasidan surishtiruv organlarining faoliyatini, 187-modda dastlabki tergov yuritilishi shart bo'lmagan jinoyat ishlari yuzasidan surishtiruv yuritish tartibini qonuniy tartibga soladi¹. MDH o'rtasida faqat Belarus Respublikasi jinoyat prosessida tezlashtirilgan ish yuritish tartibi mavjud. Ikki shakldagi surishtiruvdan farqli ravishda, tezlashtirilgan ish yuritish jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxs aniq bo'lsa va u o'zini jinoyatga daxldorligini rad etmasa, surishtiruv organlari tomonidan amalga oshiriladi. Tezlashtirilgan ish yuritish Belarus Respublikasi Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan 41 tarkibdagi jinoyatlar yuzasidan olib boriladi.

Gruziya Respublikasi yangi JPKning loyihasi ingliz tilida AQSh olimlari yordamida ishlab qilgan va unda “inquest” atamasi umuman qo'llanilmagan. Jinoyat ishlari yuzasidan tergov olib boriladi².

Moldava Respublikasi jinoyat prosessi surishtiruv institutidan umuman voz kechgan³. Barcha jinoyat ishlari yuzasidan jinoiy ta'qib olib boriladi. JPKning 56-moddasiga muvofiq jinoiy ta'qib Ichki ishlar Vazirligi, Moldova Respublikasi

¹ Беларусь Республикаси ЖПК: <http://www.pravo.by/webnpa/text.asp?show=all&RN=H10000377>

² Грузия Республикаси ЖПК лойихаси: <http://www.pog.gov.ge/en/reformebi/sssk.php>

³ Эстония Республикасида ҳам суриштирув институти амал қилмайди. Лекин ЖПКнинг 37, 78, 79-1, 98-моддаларида суриштирувчи деган термин қўлланилган. Германияда тескари дастлабки терговдан воз кечилиб, суриштирув институти тўлиқ амал қилади. Тўлиқроқ қаранг: Калиновский К.Б., Файзиев Ш. Ф. Уголовный процесс зарубежных стран. Под ред. д.ю.н. проф. М.Х. Рустамбаева. – Тошкент: ТГЮИ, 2007. – С. 80-91.

axborot va xavfsizlik xizmati, Bojxona departamenti, iqtisodiy jinoyatlar va korrupsiyaga qarshi Markaz tomonidan amalga oshiriladi¹.

Ozarbayjon Respublikasi JPKning 214.2.1.- moddasiga muvofiq surishtiruv Ozarbayjon Respublikasining ijro etuvchi organlari tomonidan amalga oshiriladi JPKning 214.2.2.-moddasiga muvofiq surishtiruvchi vakolatlarini harbiy qism komandirlari, harbiy muassasa boshliqlari, qamoqda saqlash joylari yoki jazoni o'tash muassasasi boshliqlari, dengiz kema kapitanlari va boshqa mansabdorshaxslar amalga oshiradi. Surishtiruv organlari jinoyat-prosessual faoliyati JPKning 86, 214-215, 293-297-moddalari bilan tartibga solinadi.

Ozarbayjon Respublikasi JPKning 214.1.1-moddasiga muvofiq, dastlabki tergov o'tkazilishi shart bo'lgan jinoyat ishlari yuzasidan kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini yuritish, JPKning 214.1.2.-moddasiga muvofiq surishtiruvning ikkinchi shakli soddalashtirilgan tartibda sudgacha ish yuritish deb nomlanib, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va aniq jinoyatlar yuzasidan o'n kunlik muddatda kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini yuritish bilan tamomlanadi². Ikkinchi shakldagi surishtiruv Ozarbayjon Respublikasi Jinoyat Kodeksida nazarda tutilgan 16 tarkibdagi jinoyat ishlari yuzasidan olib boriladi.

Rossiya Federasiyasi JPKning 40-moddasi surishtiruv organlarini sanab o'tgan unga ko'ra: 1) Rossiya Federasiyasining ichki ishlar organlari, shuningdek, federal qonun bilan tezkor-qidiruv faoliyati yuritish vakolati berilgan boshqa ijro organlari³; 2) Rossiya Federasiyasining bosh sud ijrochisi, bosh harbiy sud ijrochisi, Rossiya Federasiyasining subyekti bosh sud ijrochisi, ularning o'rinbosarlari, katta sud ijrochisi, katta harbiy sud ijrochisi, shuningdek, Rossiya Federasiyasining Konstitusiyaviy sudi, Rossiya Federasiyasining Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudining katta sud ijrochilari; 3) Harbiy qism, qo'shilmalar komandirlari,

¹ Молдава Республикаси ЖПК: <http://www.cis-legal-reform.org/document.asp?id=7192>

² Озарбайжон Республикаси ЖПК: <http://nadzor.pk.ru/>

³ Россия Федерациясининг “Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида”ги қонунининг 13-моддасига мувофиқ 1) Россия Федерациясининг Ички ишлар органлари; 2) Федерал хавфсизлик хизмати органлари; 3) Давлат Федерал муҳофазаси органлари; 4) Россия Федерациясининг чегара хизмати органлари; 5) Россия Федерациясининг боғхона органлари; 6) Россия Федерациясининг ташқи разведка хизмати; 7) Россия Федерациясининг Адлия Вазирлиги тезкор-қидирув юритиш ҳуқуқига эга.

harbiy yoki garnizon boshliqlari; 4) Davlat yong'inga qarshi xizmati organlari; 5) olis safarda bo'lgan dengiz va daryo kema kapitanlari; 6) ushbu moddaning birinchi qismida sanab o'tilgan surishtiruv organlaridan yiroqda bo'lgan geologik partiyalar va qishlash boshliqlar; 7) Rossiya Federasiyasining diplomatik vakolatxona va konsullik muassasalari boshliqlari.

MDH orasida son jihatdan eng ko'p surishtiruv organlari aynan shu davlatda, fikrimizcha bu to'g'ridir, chunki ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyat ishlari yuzasidan surishtiruv organlarining o'rnini bosa oladigan mexanizm yarata olish mushkul.

Surishtiruvning ikki shakli mavjud: 1) JPKning 32-bobi (surishtiruv)da nazarda tutilgan tartibda dastlabki tergov o'tkazilishi shart bo'lmagan jinoyat ishlar yuzasidan surishtiruv; 2) JPKning 157-moddasi (kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini yuritish)da nazarda tutilgan tartibda dastlabki tergov o'tkazilishi shart bo'lgan jinoyat ishlar yuzasidan kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini bajarish¹.

V.M. Lukin fikricha yuqoridagi sanab o'tilgan surishtiruv shakllari tergovning o'zi faqat, uning subyekti surishtiruv organi boshlig'i va surishtiruvchidir².

Fikrimizcha, obyektiv va subyektiv xarakterdagi qiyinchiliklarga qaramay, surishtiruv institutining to'liq hajmi O'zbekiston Respublikasi jinoyat-prosessual qonunchiligi amal qilishni boshlaydi.

Nazarimizda, surishtiruv institutining to'liq hajmi ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyat ishlari yuzasidan fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilinishining kafolati bo'ladi³.

¹ Россия Федерациясининг ЖПК: <http://www.plyushkin.fromru.com>,

² Лукин В.М. Уголовно-процессуальная деятельность органов дознания: Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. – СПб.: Санкт-Петербургский университет МВД России, 2003. – С. 9.

³ Файзиев Ш.Ф. Сравнительно-правовой анализ уголовно-процессуальной деятельности органов дознания по УПК России и УПК Республики Узбекистан. // Актуальные проблемы эффективного правосудия: Статьи, комментарии, практика / Белгородское юридическое общество (под. Ред. Е.Н. Киминчижи). – Белгород: Константа, 2007. Вып. 2. – С. 84-86.

Ukraina Respublikasi JPKning 101-moddasiga muvofiq, surishtiruv organlari quyidagilar: 1) Milisiya; 1.1) Soliq milisiyasi; 2) Xavfsizlik organlari; 3) Harbiy qismlar, qo'shilmalarning komandirlari, harbiy muassasalar va harbiy o'quv yurtlarining boshliqlari; 4) Bojxona organlari; 5) Mehnat-intizom muassasasi boshliqlari, tergov izolyatorlari, tarbiya-mehnat jazoni ijro etish tizimini boshqarish organlarining boshliqlari, qamoq tarzidagi jazoni ijro etish muassasalarining, jazoni ijro etish koloniyalari, tarbiya koloniyalari, hamda turmalarning boshliqlari; 6) Davlat yong'indan nazorat qilish organlari; 7) Chegarani qo'riqlash organlari; 8) Olis safarda bo'lgan dengiz kemalarining kapitanlari. JPKning O'ninchi bobi surishtiruv deb nomlanib, 103-moddasida surishtiruv organlarning vakolatlarini sanab bergan. Unga ko'ra, surishtiruv organlari jinoyat belgilari mavjud hollarda, jinoyat va uni sodir etgan shaxslarni topish maqsadida tezkor-qidiruv choralari qo'llashi nazarda tutilgan. Surishtiruv og'ir, o'ta og'ir jinoyat hisoblanmaydigan ishlar yuzasidan, jinoyat sodir qilgan shaxs topilgan kundan boshlab, o'n kundan oshmagan muddatda yuritiladi. Agar bunday shaxs aniqlanmagan bo'lsa, surishtiruv JPKning 209-moddasi (Jinoyat sodir qilgan shaxs aniqlanmaganligi munosabati bilan tergovni to'xtatish) nazarda tutgan talabda to'xtatiladi. Og'ir jinoyat ishlari yuzasidan surishtiruv, jinoyat ishi qo'zg'atilgan kundan boshlab o'n kundan oshmagan muddatda yuritiladi. JPKning 109-moddasiga muvofiq surishtiruv prokuror tomonidan tasdiqlanadigan, dastlabki tergov o'tkazish uchun yuborish to'g'risidagi qaror tuzish bilan tamomlanadi.

Ukraina Respublikasi JPKning oxirgi loyihasida (2006 yil aprel oyidagi holati) surishtiruv organlari tizimi uncha ahamiyatli o'zgarish bo'lmagan, masalan 41-moddaning 5-bandiga muvofiq markaziy ijro hokimiyatining fuqarolarni himoya qilish masalalari bilan shug'ulanuvchi organ va bo'limlar, 41-moddaning 10-bandiga muvofiq diplomatik va konsullik muassasa boshliqlari yangi surishtiruv organi sifatida kiritilgan.

Ukraina yuridik adabiyotlarida hozirgi kunda faoliyat yuritadigan surishtiruv organlari tizimini kengaytirish yuzasidan fikr va takliflar

bildirilgan. Mualliflarning fikricha, davlatning bu orqali inson va fuqarolarning konstitusiyaviy huquq va erkinliklarini jinoiy tajovuzlardan real himoya qilish imkoni bo'ladi.

Bu yondashuvning asosi sifatida, jinoyat qonunchiligida juda katta hajmda ijtimoiy xavfli qilmishlar nazarda tutilganligi ahamiyat kasb etmoqda. "Shu bilan birga, ular sodir etilganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortish mexanizmini tasavvur qilish ham qiyin, basharti ushbu mexanizm bunday jinoyatlarni aniqlash va aybdor bo'lgan shaxslarni javobgarlikka tortish faoliyatini boshlash uchun mas'ul bo'lgan maxsus davlat tizimini nazarda tutmasa"¹.

Ehtimol bunday takliflar ahamiyatga egadir, biroq faqatgina surishtiruv organlari o'rtasida ijtimoiy-huquqiy muhitni² taqsimlash, ya'ni faoliyat predmeti borasida ularning ro'yxatini keygaytirish mumkindir.

Qozog'iston Respublikasi JPKning 65-moddasining 2-qismiga asosan, surishtiruv organlari 10 tani tashkil qilib, ular: 1) ichki ishlar organlari; 2) milliy xavfsizlik organlari; 3) adliya organlari; 4) moliya polisiya organlari; 5) bojxona organlari; 6) harbiy polisiya organlari 7) chegara qo'shinlari komandirlari 8) harbiy qismlar komandirlari, qo'shilmalar, harbiy muassasa va garnizon boshliqlari (harbiy polisiya organi mavjud bo'lmagan hollarda) 9) diplomatik vakolatxona va konsullik muassasalarining vakillari, Qozog'iston Respublikasining vakolatga ega vakillari; 10) yong'inga qarshi davlat xizmati organlari.

Qozog'iston Respublikasi JPK muvofiq surishtiruv organlarining jinoyat-prosessual faoliyati deyarli tergovchining vakolat doirasiga tenglashtirilgan.

¹ Джига М.В., Баулін О.В., Лук'янець С.І., Стахівський С.М. Провадження дізнання в Україні: Навч.-практ. посіб. – Київ: РВВ МВС України, 1999. – С. 52. (україн тилида таржимон ёрдамидан фойдаланилган)

² "Ижтимоий-хуқуқий муҳит" тушунчаси илмий муомалага 1976 йилда рус ҳуқуқшуноси В.Д. Сорокин томонидан киритилиб, унинг назарида ушбу муҳит "ижтимоий ҳодисалар ва жамиятда инсонлар ўртасида қарор топган муносабатларнинг шундай қисмини қамраб оладики, улар (алоқа ва ҳодисалар) ҳуқуқий тартиботга муҳтож ва унинг таъсирида юридик шакл касб этади". (Қаранг: Сорокин В.Д. Метод правового регулирования. Теоретические проблемы. – М.: Юрид. лит, 1976. – С. 58.; Шу муаллиф: Правовое регулирование: Предмет, метод, процесс (макроуровень). – СПб.: Юридический центр Пресс, 2003. – С. 50-51.

Qozog'iston Respublikasi jinoyat-prosessual qonunchiligiga muvofiq, surishtiruvning ikki shakli mavjud bo'lib, bular:

Birinchi shakli, dastlabki tergov o'tkazilishi shart bo'lgan ishlar yuzasidan surishtiruv, dastlabki tergovning birinchi bosqichi (JPKning 200-moddasi).

Ikkinchi shakli, dastlabki tergov o'tkazilishi shart bo'lmagan ishlar yuzasidan surishtiruv, dastlabki tergov qilishning mustaqil ko'rinishi (JPKning 285-288-moddalari) hisoblanadi.

Ushbu ikki shakl surishtiruvning farqi shundaki:

Birinchi surishtiruv shakli O'zbekiston Respublikasi surishtiruviga o'xshaydi lekin, Qozog'iston Respublikasida surishtiruvchi jinoyat ishini qo'zg'atgan kundan boshlab, besh kundan kechikmasdan ishni tergovchiga o'tkazishi bilan farq qiladi.

Ikkinchi surishtiruv shakli dastlabki tergov qilishning mustaqil ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi, yuqoridagi shakldan farqli ravishda surishtiruvning bu shakli jinoyat sodir qilgan shaxs sifatida gumondor mavjud bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi ¹. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Qozog'iston va O'zbekiston surishtiruv organlari va ularning jinoyat-prosessual faoliyati tamomila o'zining xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi, hamda Qozog'iston Respublikasi JPK surishtiruv yuritishni nisbatan ijobiy tartibga solgan.

Yuqoridagilar asosida xorijiy mamlakatlar va O'zbekiston Respublikasi jinoyat-prosessual qonunchiligini qiyoslash asosida quyidagicha qisqacha xulosalarga kelishimiz mumkin:

1) MDH va rivojlangan mamlakatlarning jinoyat-prosessual qonunchiligini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki O'zbekiston Respublikasida surishtiruv analogiyaga ega emas.

2) Fikrimizcha, ayrim mustaqil davlatlar (Moldava, Estoniya, Gruziya) da surishtiruv organlarini joriy etish lozim, chunki barcha jinoyat ishlari yuzasidan

¹ Файзиев Ш.Ф. Жиноят процессида суриштирув. Илмий-амалий қўлланма / юридик фанлари доктори Б.Х. Пулатовнинг умумий таҳрири остида. – Тошкент: ТДЮИ, 2006. – 327 б.

tergov organlarining kuchidan foydalanish mamlakat byudjetidan katta xarajatlarni talab etish bilan birgalikda, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar yuzasidan uch oydan bir yilgacha tergov olib borish shart emas.

Yuqorida ayrim MDH davlatlari (Qozog'iston Respublikasi, Tojikiston Respublikasi, Turkmaniston Respublikasi, Ozarbayjon Respublikasi, Rossiya Federasiyasi) jinoyat-prosessual qonunida surishtiruvning 2 shakli sanab o'tilgan edi, fikrimizcha dastlabki tergov o'tkazilishi shart bo'lgan ishlar yuzasidan surishtiruv dastlabki tergovning o'zini takrorlaydi, ortiqcha jismoniy kuchning sarf etilishini oldini olish maqsadida ayrim MDH mamlakatlari jinoyat-prosessual qonunchiligida surishtiruvning ushbu shaklini tugatish (olib tashlash) lozim deb o'ylaymiz¹.

3) O'zbekiston Respublikasida surishtiruv organlari kuchidan kam foydalanilayotganligi munosabati bilan, surishtiruv muddatining qisqaligini, jinoyat ishi yuzasidan dalillarni yig'ishda surishtiruvchining vakolatlari chegaralanganligini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi JPKning 42-bobini yangi tahrirda berishni taklif etamiz (1-ilovaga muvofiq).

¹ Муаллиф ушбу фикрларни Қозоғистон Республикаси Олмаота шаҳри Оқ-булоқ санаториясида бўлиб ўтган ёзги мақтаб сессияларида айтиб ўтган. Бу ҳақда тўлиқроқ қаранг: www.lexkz.net

2-BOB. SURISHTIRUV VAZIFALARINI IJRO ETISH MUAMMOLARI

2.1. Surishtiruv organlari tomonidan jinoyatning oldini olish yoki unga yo'l qo'ymaslik

Surishtiruv organlari vazifalari tizimida jinoyatning oldini olish yoki unga yo'l qo'ymaslik muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bu sohada mutassadi davlat organlari tomonidan vakolatli shaxslarni kasb mahoratlarini oshirish va kadrlarni tanlash masalasiga jiddiy e'tibor berish ham muhim ahamiyatga ega¹.

Jinoyat ishlarini yuritishning JPKda belgilangan tartibi qonuniylikni mustahkamlashga, jinoyatlarning oldini olishga, shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya etishga asoslanmog'i lozim. Bu borada, kriminologiya jinoyatchilikning sodir bo'lishi va mohiyatini, uning mavjud bo'lish sabablarini, jinoyatchilikning oldini olish vositalari va yo'llarini hamda jinoyat sodir qiluvchi kishilarning shaxsini o'rganadi².

Jinoyatchilikka qarshi kurash choralarini belgilash muhim ahamiyatga ega bo'lib, rivojlangan davlatlarda jinoyatchilikni o'rganish va unga qarshi kurash choralarini belgilash bilan alohida ilmiy tekshirish institutlari shug'ullanadi. Shunday ekan, mamlakatimizda ham shunday tarmoq tashkil qilinsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Jinoyatlarni o'z vaqtida oldini olish va jazoning muqqarrarligini fuqarolar ongiga singdirish ham jinoyatlarni kamayishiga olib keladi.

Jinoyat-prosessual qonunchilik jinoyat ishi yuzasidan tergov qilishning dastlabki tergov va surishtiruv shakllarni tartibga solishi, ushbu institutning mustaqilligidan hamda uning jinoyatchilikning oldini olishda mustaqil faoliyat ko'rsatishidan dalolat beradi. Shu ma'noda, O'zR JPKning 297-moddasidagi

¹ Игошев К.Е., Шмаров И.В. Социальные аспекты предупреждения правонарушений. – М.: Юрид. лит., 1980. – С. 138.

² Каракетов Й., Усмоналиев М. Жиноятчиликка қарши курашнинг криминалогик чоралари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995. – Б. 4.

“Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror jinoyat ishini tergov qilish chog’ida” jumlasini *“Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror jinoyat ishi yuzasidan dastlabki tergov va surishtiruv o’tkazish chog’ida”* deb o’zgartirish lozim.

O’zbekiston Respublikasi qonunchiligida jinoyatlarning oldini olish va ularga chek qo’yish jinoyat-prosessual faoliyati vazifalari qatoriga kiritilgan. Jinoiy qilmishlarning oldini olish O’zbekiston Respublikasi jinoyat prosessining asosiy yo’nalishlaridan biridir. Ayni shu sababli u ilmiy adabiyotlarda jinoyat prosessining asosiy funksiyalaridan biri sifatida qaraladi. Uning profilaktik mazmuni avvalo, jinoyat ishini qonunga muvofiq, asosli va odilona hal qilish, prosessual faoliyat shakli va mazmuni bilan fuqarolarga tarbiyaviy ta’sir ko’rsatish, jinoyatlar sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi sabablar va omillarni aniqlash va bartaraf etishdan iboratdir.

O’zbekiston Respublikasida qonun chiqaruvchi jinoyat ishlari bo’yicha sud ish yurituvchi vazifalarini sezilarli darajada kengaytirgan, surishtiruv organi, tergovchi, prokuror va sudga nafaqat haqiqiy jinoyatchini topish va jazolash, balki u jinoiy yo’lga kirishiga nima sabab bo’lgan, huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi sabablar va omillarni bartaraf etish uchun nima qilish kerak, degan savollarga javob berish majburiyatini ham yuklagan.

Ayrim toifa jinoyatlarning oldini olish yoki unga yo’l qo’ymaslik sohasida surishtiruv organlari ichida milisiyaning kinologiya xizmati katta ahamiyatga ega, masalan, 2007 yilning o’tgan davri mobaynida xizmat itlari yordami bilan 300 dan ko’proq jinoyat fosh etildi: 180 ga yaqin o’g’irlik, 10 dan ortiq qotillik, 70 dan ziyod giyoxvandlik vositalarining noqonuniy aylanishi bilan bog’liq jinoyatlar, bir qator bosqinchiliklar shu jumlasidan¹.

Surishtiruv, tergov va sud organlari faoliyati fuqarolar huquqiy ongini tarbiyalashning muhim vositasidir. Bunday tarbiyalash vakolatli shaxslar o’z prosessual funksiyalarini bevosita bajarishi jarayonida amalga oshiriladi. Surishtiruv organi, tergovchi, prokuror, himoyachi va sud, har biri o’z vakolatlari

¹ Ибрагимов Т. Хушёрлик самара бермоқда. // Қалқон. — Тошкент, 2007. — № 9. — Б. 17

doirasida ayblov, himoya, jinoyat ishini hal qilish prosessual funksiyalarini bajarar ekan, odil sudlovning tarbiyaviy maqsadlariga erishish yo'lida yakdildir. Jinoyatlarning oldini olish borasidagi prosessual faoliyati va uning samaradorligi muammolarini o'rganish faqat jinoyat prosessi prinsiplariga muvofiq va ular prosessual qonun hujjatlarining muayyan normalarida qanday ro'yobga chiqarilganiga qarab amalga oshirilishi lozim.

Prezidentimiz I.A.Karimov "Qonunni himoya qilish, sud, prokuratura organlarining asosiy vazifasi, avvalo... huquqbuzarlikning oldini olish bo'yicha samarali ish olib borishdan iboratdir"¹, degan so'zlari zahirida ham ushbu organlar faoliyatining aynan ogohlantiruvchi ahamiyati yotadi.

Jinoyatlarning oldini olish borasidagi faoliyatning samaradorligi asosan jinoyat prosessining dastlabki bosqichida yuzaga keluvchi masalalar o'z vaqtida to'g'ri hal qilinishi bilan belgilanadi. Qonun chiqaruvchi jinoyat prosessining dastlabki bosqichida jinoyatlarning oldini olish va ularni to'xtatish choralarini ko'rishning majburiyligini qayd etadi. Xususan, tayyorlanayotgan, sodir etilayotgan, davom etayotgan yoki davomli jinoiy qilmishlar haqidagi har bir ariza va xabar bo'yicha darhol ularni to'xtatish choralari ko'rilishi lozim bo'lib, ayni shu choralar asosan surishtiruv organlari, avvalambor, milisiyaning navbatchi qismlari tomonidan amalga oshiriladi. Bunday hollarda tezkorlik nafaqat mazkur jinoyatning, balki to'xtatilgan huquqbuzarlikka qanday sabablar imkoniyat yaratgan bo'lsa, ayni shu sabablar ta'sirida mo'ljallanayotgan yoki sodir etilayotgan boshqa ijtimoiy xavfli qilmishlarning ham oldini olish imkonini beradi.

O'zR JPKga binoan jinoyat ishlarini yuritishning jinoyat-prosessual qonunlarda belgilangan tartibi qonuniylikni mustahkamlashga, jinoyatlarning oldini olishga, shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya etishga yordam qilmog'i lozim (2-modda). Shuningdek, jinoyat ishlarini yuritishda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon

¹ Каримов И.А. Адолат - қонун устуворлигида: Иккинчи чақириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг VI сессиясидаги маъруза // "Халқ сўзи" газетаси, 2001 йил 30 август.

bergan shart-sharoitlarni aniqlashlari shart. Ushbu umumiy qoidalardan kelib chiqqan holda O'zR JPK 339-moddasida jinoyatning oldini olish yoki unga yo'l qo'ymaslik surishtiruv organlarining eng asosiy vazifasi sifatida belgilangan.

Yuridik adabiyotlarda "jinoyatchilikni oldini olish (profilaktikasi)" tushunchasi keng va tor ma'noda qo'llaniladi. Keng ma'noda u jinoyatchilikka qarshi kurashning bilvosita strategiyasidir. Bu turdagi jinoyatchilikning oldini olish aholining ish bilan bandligini ta'minlash, ishsizlikni kamaytirish, ta'lim, dam olish, pensiya ta'minotini yaxshilash va jazoni o'tab qaytgan shaxslarga ijtimoiy yordam ko'rsatishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish kabi choralarni o'z ichiga oladi. Tor ma'noda jinoyatchilikning oldini olish jinoyatchilikka qarshi kurashning bevosita strategiyasidir¹.

Yuqoridagilar asosida ***jinoatlarning oldini olish (profilaktikasi)*** – bu davlat va jamoatchilik organlari va tashkilotlarining jinoatlarning sabablari va shart-sharoitini bartaraf etish yoki ularni neytrallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlari yoki chora-tadbirlar majmui, degan xulosaga kelish mumkin.

Faoliyatining asosiy yo'nalishi jinoyatchilikka qarshi kurash va uning oldini olishdan iborat bo'lgan subyektgina profilaktika subyekti sifatida tan olinishi mumkin. Shunga muvofiq, jinoatlarni profilaktika qilish subyektlari doirasiga faqat huquqni muhofaza qilish organlari, avvalo, ichki ishlar organlari kiradi. Ular mazmuni va yo'nalishi har xil bo'lgan profilaktika ishlarini amalga oshiradi, o'z jinoatlarni profilaktika qiluvchi subyektlarining muayyan kichik tizimiga ega bo'ladi.

Ichki ishlar (surishtiruv) organlari o'z jinoatlarning oldini olish funksiyasini bajarar ekan: spirtli ichimliklar bilan qonunga xilof ravishda savdo qiluvchilarni va mayda bezorilik yoki mayda o'g'rilik sodir etgan piyonistalarni, shifokor ko'rsatmasisiz giyohvandlik vositalari iste'mol qiluvchilarni,

¹ Акрамхўжаев У. Тайёрланаётган жиноят ва суиқасдларнинг олдини олиш // Ҳуқуқ ва бурч. – Тошкент, 2007. – № 5. – Б. 50-52.; Пўлатов Ю.С., Хидоятлов Б.Б. Суриштирув ва дастлабки тергов босқичида жиноятнинг сабаблари ва унинг содир этилишига имкон берган шарт-шароитларни аниқлаш ва уларни бартараф этиш. Ўқув қўлланма. – Тошкент: ТДЮИ, 2005. – Б. 40.

bangixonalar va fohishaxonalarni saqlab turuvchilarni, jinoyat sodir etishda shubha qilinganlarni aniqlaydi va ularning hisobini yuritadi; ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risida bayonnomalar tuzadi; huquqbuzarlarni ushlash va ularni ichki ishlar organlariga yetkazishni ta'minlaydi; shaxs, buyum, transport vositalarini ko'zdan kechiradi, buyum va hujjatlarni olib qo'yadi; ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishning qonunda nazarda tutilgan boshqa chora-tadbirlarini qo'llaydi; huquqbuzarlik sodir etgan harbiy xizmatchilarni ushlaydi; ma'muriy nazorat ostiga olingan shaxslar hisobini yuritadi, ularni nazorat qiladi, ularga nisbatan qonunda nazarda tutilgan cheklashlarni qo'llaydi; jamoat joylarida insonning sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlovchi va ijtimoiy axloqqa zid mast holda bo'lgan shaxslarni maxsus tibbiy muassasalarga yoki ichki ishlar organlarining navbatchilik qismlariga yetkazadilar va h.k.

Shu o'rinda surishtiruv organlari profilaktika ishini maqsadiga ko'ra ikkiga ajratish mumkin: a) jinoyatlarni to'xtatish chora-tadbirlari; b) jinoyatchilik sabablari va shart-sharoitini bartaraf etish chora-tadbirlari.

Surishtiruv organlarining jinoyatlarning oldini olish borasidagi faoliyati quyidagilarni o'z ichiga oladi: aybdorni jinoiy javobgarlikka tortish orqali uning jinoiy faoliyatni davom ettirishiga barham berish; jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'ygan shaxslarni javobgarlikka tortish; jinoyat ishi materiallaridan profilaktika faoliyatida foydalanish; jinoyat sodir etilgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslari bilan uchrashish va suhbatlashish.

Surishtiruv organlari faoliyatida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish alohida yo'nalish hisoblanadi. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish bilan bog'liq barcha choralar uning bosh vazifasini amalga oshirish – mikromuhit kriminogen omillarining ta'siriga chek qo'yishga qaratilishi lozim. Profilaktika chora-tadbirlari tarbiyasi og'ir o'smirlar g'ayriijtimoiy xulq-atvorning yanada xavfliroq shakllariga o'tishini to'xtatishlari, ular kelajakda to'g'ri yo'lga kirishlarini ta'minlashi darkor. Shaxsning jinoiy moyilliklari ko'pincha oilada

shakllanadi. Shu sababli oiladagi jinoyatlarning oldini olish quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi: oila a'zolariga oilaning salbiy ta'siriga barham berish uchun shart-sharoit yaratish; oiladagi muayyan nizolarni hal qilish; oilaning ijobiy imkoniyatlaridan foydalanish; oiladagi ziddiyatlarga chek qo'yish.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, shu jumladan ***surishtiruv organlari tomonidan amalga oshiriladigan oiladagi jinoyatlarning oldini olish chora-tadbirlarini bir necha guruhga ajratish mumkin:***

1) *Oiladagi kriminogen ta'sir o'choqlarini aniqlash chora-tadbirlari.* Bu guruhga beqaror, ilgari sudlangan hamda huquqbuzarlar yashaydigan oilalarni, oilalardagi salbiy ta'sir manbalarini, janjal chiqqan oilalarni, bolalarning nazoratsizlik holatlarini aniqlash choralari kiradi. Bu choralar oilaviy barqarorlik, ilgari sudlanganlarning oilaviy holati, maktabda darslarga qatnamayotgan bolalar haqidagi ma'lumotlar yig'ish va umumlashtirish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin.

2) *Beqaror oilalarni hisobga olish va ularni surunkali nazorat qilishni ta'minlovchi choralar.* Bunday oilalar har bir tumanda yagona organda to'planishi, ushbu axborot beqaror oilalarga yordam ko'rsatishga qodir organlarga yuborilishi, zarur choralar ko'rilishi ustidan nazorat olib borish lozim.

3) *Bolalar nazoratsizligining oldini olish chora-tadbirlari.* Oilada bolalar tarbiyasiga ko'proq e'tibor berish, ular nima bilan shug'ullanayotganligini nazorat qilish, ota-ona va bolalar o'rtasida yaqin aloqalar o'rnatish lozim.

Surishtiruv organlari tomonidan ***iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarning oldini olish*** iqtisodiy faoliyat jabhasida jinoyatchilikning paydo bo'lishi va rivojlanishini belgilovchi yoki muayyan iqtisodiy jinoyatlar sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi omillarga ularni neytrallashtirish yoki ularga barham berish yo'li bilan ta'sir ko'rsatishdan iboratdir. Iqtisodiyot sohasida jinoyatlarning oldini olish ijtimoiy boshqaruvning ajralmas qismi bo'lib, huquqbuzar shaxsini tuzatish va jinoyatlar sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi holatlarga barham berishga qaratilgan

iqtisodiy, tashkiliy-ishlab chiqarish, texnik, huquqiy, tarbiyaviy chora-tadbirlar tizimini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlarning oldini olish sohasida maxsus profilaktika choralari jumlasiga quyidagilar kiradi: ekologik ahamiyatga molik xulq-atvor, shu jumladan jinoyat-huquqiy taqiqlarga rioya etish ustidan nazoratni takomillashtirish; ekologiya sohasida aniqlangan huquqbuzarliklar haqida tegishli idoralarga axborot berish; maxsus rejim o'rnatish hamda texnologiya va boshqaruv vazifalari va jarayonlarini qayta qurish; ekologiya uchun zararli bo'lgan muayyan harakatlarni amalga oshirishni normativ yo'l bilan taqiqlash va h.k.

Soliq sohasidagi jinoyatlarning oldini olish turli darajalarda va bir necha yo'nalishda amalga oshiriladi. Bu borada asosiy vazifalar quyidagilardan iborat: soliqlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlar to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishini nazorat qilish; soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash, soliq to'lovchilarga soliqlar bo'yicha majburiyatlarni bajarishlarida yordam ko'rsatish; soliq siyosatini amalga oshirishda bevosita ishtirok etish; soliqqa tortiladigan obyektlar va subyektlarning to'liq hamda o'z vaqtida hisobga olinishini ta'minlash; soliqlar bo'yicha huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etish.

Nafsilambirni aytganda, surishtiruvchining butun faoliyati pirovard natijada jinoyatlarning oldini olish va ularga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan. Jinoyatlarni tez va to'la ochish, aybdorlarni fosh qilish, jazoning muqarrarligini ta'minlash – bularning barchasi jinoyatlarning oldini olishga ko'maklashadi. Boshqacha bo'lishi mumkin ham emas, zero jinoyatlarning oldini olish O'zR JKning vazifalaridan biri hisoblanadi.

Surishtiruv organlari jinoyatning oldini olish va unga yo'l qo'ymaslik vazifasidan kelib chiqib, dastlabki tergov organlari bilan quyidagi prosessual funksiyalarni amalga oshiradi: 1) ichki ishlar organlari sodir etilgan jinoyat bo'yicha surishtiruv olib borganidan so'ng, jinoyat ishi materiallarini tergov

organlariga topshiradilar, agar sodir etilgan jinoyat prokuratura yoki MXX organlari tomonidan tergov qilinishini taqozo etsa, u holda materiallar tegishli organ tergovchilariga topshiriladi; 2) harbiy qism, birlashma, qo'shnlarning qo'mondonlari va harbiy o'quv yurtlarining boshliqlari ushbu qism, birlashma, qo'shin va o'quv yurtlari hududlarida sodir etilgan va harbiy xizmatga aloqador shaxslarga nisbatan jinoyat ishi materiallarini harbiy prokuratura tergovchilariga berib yuborish; 3) milliy xavfsizlik xizmati organlari tomonidan qo'zg'atilgan jinoyat ishlari bo'yicha ish materiallarini milliy xavfsizlik xizmati organlarining dastlabki tergov organlariga topshirish; 4) jazoni ijro etish tizimini boshqarish organlarining boshliqlari, qamoq tarzidagi jazoni ijro etish muassasalarining, jazoni ijro etish koloniyalari, tarbiya koloniyalari, tergov izolyatorlari hamda turmalarning boshliqlari, yong'inga qarshi davlat nazoratining organlari, chegarani muhofaza qilish organlari, dengiz kemalarining kapitanlari va boshqalar ularda bo'lgan jinoyat ishlarini dastlabki tergov organlariga JPKning 345-moddasining tergovga tegishlilikga qarab qonunda qayd etilgan tergov organiga yuborish¹ va boshqalar.

Bulardan tashqari surishtiruv organlari O'zR JPKda (339-modda) belgilangan vazifasidan kelib chiqib jinoyatning oldini olish yoki unga yo'l qo'ymaslik borasida yana quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi: ko'chalarda patrullik qilish, binolarni qo'riqlash, qo'riqlash signalizasiyalaridan foydalanish hamda jinoiy faoliyatga imkon beruvchi tashkiliy va texnik sharoitlarni bartarf etish orqali jinoyat sodir qilish imkoniyatini kamaytirish; profilaktik ishlarni olib borish, jumladan, fuqarolarni huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatidan xabardor qilish, jinoyatlarning oldini olishga doir axborot tarqatish, ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda tashviqot tadbirlarini amalga oshirish; cho'zilib ketgan janjalli vaziyatlarning oldini olish va keskin zo'ravonlikka asoslangan nizolarga chek qo'yish orqali inqirozli vaziyatlarga aralashish; ilgari sudlangan shaxslarni notinch oilalar, huquqbuzarlikka moiyl o'smirlarni aniqlash

¹ Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодексига шарҳлар. – Тошкент: Адолат, 2000. – Б. 444.

va ular bilan profilaktika ishlari olib borish; joylarda mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda jinoyatchilikni oldini olish hamda unga yo'l qo'ymaslik borasida birgalikda chora-tadbirlar ko'rish va boshqalar shular jumlasidandir.

3.2. Surishtiruv organlari tomonidan dalillarni to'plash va saqlash

Jinoyatchilikning uyushgan va yangidan-yangi ijtimoiy xavfi yuqori bo'lgan turlari paydo bo'lib kelayotgan sharoitda O'zR JPKning dalillarga oid normalarini yanada takomillashtirish zaruriyati tug'iladi. Zero, dalillar jinoyatni tez fosh etishning asosiy va birlamchi shartidir. Shu ma'noda surishtiruv organlarining bu boradagi faoliyati juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman, "dalil" va "isbotlash" tushunchalari dalillar nazariyasida bir necha ma'nolarda qo'llaniladi. Dalil, prosessual ma'noda, qonunda belgilangan tartibda qo'lga kiritilgan ishning biron-bir faktik holatlari bo'yicha ma'lumotlar. Dalillar to'g'risidagi fanda turli fanlar, shu jumladan, mantiq, psixologiya, kriminalistika, sud tibbiyoti, psixiatriya va sh.k. erishgan yutuqlardan keng foydalaniladi¹.

Isbotlash ishni asosli, qonuniy va odilona hal etish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni aniqlash maqsadida dalillarni to'plash, tekshirish va baholashdan iboratdir. Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud, sudya o'z vakolatlari doirasida isbotlashni amalga oshiradilar.

O'zR JPK dalillarni to'plashga oid harakatlarni amalga oshirishning muayyan talab, tartib va kafolatlarini (prosessual shaklini) belgilaydi. Ushbu talablarga rioya etilmay qo'lga kiritilgan dalillar uning ishonchliligini shubha ostiga qo'yadi, prosess ishtirokchilarining huquq va qonuniy manfaatlariga daxl qiladi. Buning natijasida ko'p hollarda dalil sifatida qo'lga kiritilgan ma'lumotlarning nomaqbul deb tan olinishga sabab bo'ladiki, bunda hatto ularni qo'lga kiritish manbai va to'plash usuli qonuniy bo'lgan taqdirda ham ulardan dalil sifatida foydalanish mumkin bo'lmaydi. Masalan, jinoyat ishini qo'zg'atilgunga

¹ Соловьев А.Б. Доказывание по Уголовно-процессуальному кодексу Российской Федерации (досудебные стадии). Научно-практическое пособие. – М.: Юрлитинформ, 2003. – С. 148.

qadar tegishli qaror qabul qilmay turib tintuv o'tkazish ushbu tergov harakati natijasida qo'lga kiritilgan barcha ma'lumotlarning nomaqbulliligiga sabab bo'ladi.

Ashyoviy dalillarni to'plash usuli va taomillarini tartibga solish ularda saqlanayotgan ma'lumotlar xususiyatlarini inobatga olgan holda, ularni to'liq ifodalashni, ishda aniq mustahkamlashni, saqlanib qolishi va o'zgarmasligini ta'minlashga yo'naltirilgan. Xususan, ashyoviy dalillarni aniqlash joyi va holatlarini mustahkamlash; uning haqiqiylikini ta'minlash va ishonch hosil qilish (ya'ni, uning soxta yoki qalbaki bo'lish ehtimolini istisno qilish); zaruriyat tug'ilganida, ashyoviy dalillarning ish uchun ahamiyatli xususiyatlarini aniqlashda ko'makchi vositalardan kengroq foydalanish maqsadlari ko'zlanadi.

Dalillarni to'plash va tekshirishda ishtirok etish uchun xolis, mutaxassis, ekspert va sh.k.lar jalb etilib, qonunda belgilangan tartibda muayyan prosessual majburiyatlarni bajaradilar. Dalillarni to'plash va tekshirish so'roq qilish, yuzlashtirish, tanib olish uchun ko'rsatish, tintuv, olib qo'yish, ko'zdan kechirish, eksperiment, ekspertiza o'tkazish va boshqa tergov va sud harakatlari orqali amalga oshiriladi.

Sudgacha bo'lgan bosqichda dalillarni to'plash, tekshirish va baholash surishtiruvchi, tergovchi va prokuror tomonidan tergov va boshqa harakatlarni o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Isbotlash faoliyatida ishtirok etish uchun prosessning barcha ishtirokchilariga muayyan huquqlar taqdim etilgan. Tergovchi jinoyat hodisasi sodir bo'lganmi, basharti sodir etilgan bo'lsa, kim, qanday harakatlarni sodir etganligini aniqlash uchun dalillar to'playdi. Tergovchi va prokuror ishni sudga yuborish uchun yetarlicha dalillar to'planganligini hal qiladi.

Dalillar to'plashning mohiyatiga oydinlik kiritish, uning isbot qilishdagi o'rnini va ichki tuzilishini aniqlash uchun surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan amalga oshiriladigan bilish faoliyatining ayrim umumiy qirralarini tahlil qilish lozim. Dalildan isbot qilish vositasi sifatida foydalana olish uchun ularni ish uchun ahamiyatliligi belgisiga binoan ajratish, aynan dalil sifatida

yig'ish, ya'ni u yoki bu vositalar bilan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror egaligiga olish zarur.

Dalillarni to'plash– tergov organlarining faol xatti-harakati, isbot qilish jarayonining muhim elementidir.

A.N.Vinberg dalillarni to'plash tushunchasi mazmunini turli dalillarni aniqlash, muhrlash, olish va saqlash bo'yicha xatti-harakatlar majmui ya'ni, kompleks tushuncha sifatida baholaydi¹.

N.V.Terziyev dalillarni to'plash tushunchasiga ularni aniqlash va mustahkamlashni kiritmaydi hamda dalillarni aniqlash, mustahkamlash va ularni tadqiq qilishni dalillarni to'plash bilan bir qatorda sanab o'tadi².

Dalillarni to'plash o'zida informasion jarayonni ifodalaydi – dalil bo'lmish ma'lumotni jinoyat izidan jinoyat ishi materialiga aylantirish. Ushbu faoliyatning muvaffaqiyatlilik mazkur izda saqlanib qolingani, surishtiruv subyekti tomonidan aniqlangan hamda ish materiallarida ifodalangan ma'lumotning qanday saqlab qolinganligiga bog'liq. Dastlabki tergov bosqichida dalillarni to'plashning nisbatan samarali usuli tergov harakatlari sanaladi.

O'z JPKning 87-moddasiga muvofiq, dalillar tergov va sud harakatlarini yuritish yo'li bilan to'planadi.

Yuqorida sanalgan dalillarni to'plash usullarini har birini qo'llashda O'zR JPK normalariga qat'iy rioya qilish lozim, masalan: O'zR JPK 121-moddasiga muvofiq, voyaga yetmagan, ya'ni o'n olti yoshga to'lmagan guvohlarni so'roq qilish qonuniy vakili yoki katta yoshdagi yaqin qarindoshi, pedagog yoki jabrlanuvchining vakili ishtirokida ularning roziligi bilan o'tkaziladi. Ko'rsatilgan shaxslar so'roq qiluvchining ruxsati bilan guvoh yoki jabrlanuvchiga savollar berishlari mumkin.

¹ Винберг А.Н Развитие процессуальной регламентации следственных действий // Государство и право. – Москва, 1972. – С. 108-109.

² Терзиев Н.В. Лекции по криминалистике. – М., 1951. – С. 6.; Митричев С.П. Предмет советской криминалистики и ее место в системе юридических наук // Соц. законность. – Москва, 1952. – № 3. – С. 25-26.; Советская криминалистика. – М., 1962. – С. 41.

Shuningdek, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining telefon va boshqa so'zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarini eshitib turishda prokurorning sanksiyasi yoki sud ajrimiga bo'lishi shart.

O'zR JPK normalaridan har qanday chetga chiqish dalilni nomaqbul deb topishga asos bo'ladi. Nomaqbul dalillar yuridik kuchga ega bo'lmaydi, ular O'zR JPK 82-84 moddalarida ko'zda tutilgan holatlarni isbotlashda foydalanilishi hamda ayblov asosiga qo'yilishi mumkin emas. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004 yilgi 24 sentyabrdagi №12 sonli "Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-prosessual qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorida tushuntirilishicha, dalillarning maqbulligiga oid har qanday shartlarga rioya qilmaslik, ularni nomaqbul deb topish uchun asos bo'ladi¹.

Jinoyat-prosessual dalillarning maqbulligi - bu avvalambor, insonlarning jinoiy ta'qib va odil sudlov sohasidagi asosiy huquqlarini amalga oshirish real huquqiy kafolatlarining mexanizmi. Bu huquq ustuvorligini tasdiqlashga yo'naltirilgan qonunchilik va huquqni qo'llash qarorlarining ta'sirchan tizimidir zero, hych kim, hych qanday asoslarga ko'ra aniq shaxs qonuniy manfaatlarini buzishga haqli emas².

Quyida surishtiruv va dastlabki tergov organlarida dalillarni saqlash masalasiga oydinlik kiritishga harakat qilamiz.

Dalillarni saqlash muddatlari hamda ularni ta'minlash uchun qo'llaniladigan choralar masalasi isbotlash jarayoniga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Tegishli normalar bu borada quyidagilarni ta'minlaydi: a) ashyoviy dalillarning butun isbotlash jaraynida saqlab qolinishi; b) qimmatbaho va boshqa ashyolarni ularni isbotlash jarayonida qo'llash zaruriyati qolmaganligi zahotiyoq qonuniy egalariga qaytarish; v) fuqarolarning jinsiy hayotiga oid holatlarning oshkor etilmasligi; g) jinoyat quroli va muomalasi ta'qiqlangan boshqa ashyolarni ulardan foydalangan

¹ Постановление Пленума Верховного Суда Республики Узбекистан № 12 от 24 сентября 2004 года «О некоторых вопросах применения норм уголовно-процессуального закона о допустимости доказательства». // "Норма" хукукий ахборот тизими.

² Левицкий О. Место и значение института допустимости доказательств в новом уголовном процессе Украины. - Специально для "Юридической практики". - № 17 (123). 2000 год 27 апреля.

holda yangi jinoyat sodir etish ehtimolining oldini olish maqsadida olib qo'yish. Umumiy qoidaga binoan, ashyoviy dalillar hukm, jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi ajrim yoki qaror qonuniy kuchga kirgunga qadar saqlanadi.

Alohida hollarda ashyoviy dalillar ularning egasiga muddatidan oldin qaytarilishi mumkin, basharti bu tergov yoki ishni sudda ko'rishga zarar yetkazmasa¹.

Ushbu holatlarga masalan, jabrlanuvchiga o'g'irlangan ashyolarni qaytarishni kiritishimiz mumkin, bunda faqat ushbu mulkning taalluqliligi to'g'risida nizoli bo'lmasligi hamda ular ko'zdan kechirish, ekspertiza va sh.k.lar orqali tekshirilgan bo'lishi kerak.

Biroq ko'rsatilgan hollarda ashyoviy dallilarning egasini ularni ish yakuniy hal bo'lguniga qadar saqlab turish, tergov yoki sudga istalgan vaqtga taqdim etilishi zarurligi to'g'risida ogohlantirish lozim.

Tez buziladigan mahsulotlar ham egasiga zudlik bilan qaytarilishi yoki realizasiyaga berilishi mumkin. Biroq ushbu hollarda isbotlash mushkullashmasligi hamda ularning turi va sifati to'g'risida nizolar kelib chiqmasligi uchun bunday mahsulotlar dastavval tadqiq etilishi, tekshirilishi lozim. Qonun chiqaruvchi ashyoviy dalil sifatida hujjatlarga yuqoridagi kabi barcha ashyoviy dalillarga taalluqli bo'lgan saqlash muddatini tatbiq etmaydi zotan, ularni saqlash amalda hyech bir qiyinchilik tug'dirmaydi. Shu bois ular ishda uni saqlashning butun davrida qoladi yoki manfaatdor muassasaga taqdim etiladi. Ashyoviy dalil biriktirilgan jinoyat ishi tugal hal bo'lgach va ushbu dalillar boshqa ishlar bo'yicha isbotlash ahamiyatiga ega bo'lmagan hollardagina qonunda belgilangan tartibda ularni yo'q qilish, realizasiya qilish yoki manfaatdor shaxslarga taqdim etish bo'yicha choralar amalga oshiriladi.

Jinoyat ishiga biriktirilgan ashyoviy dalillarni surishtiruv va dastlabki tergov organlarida saqlash tartibi qator normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

¹ Борисов А.Б. Комментарий к Уголовно-процессуальному кодексу Российской Федерации (постатейный) с практическими разъяснениями и постатейными материалами. 2-е издание, переработанное и дополненное. – М.: Книжный мир, 2007. – С. 131.

Masalan, ashyoviy dalillarni surishtiruv organlarida, xususan, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamentida, O'zR Davlat bojxona qo'mitasida saqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 25 martdagi "Davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulkni olib qo'yish, sotish yoki yo'q qilib tashlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorida mustahkamlangan.

Ushbu qarorga muvofiq ashyoviy dalillar predmeti bo'lib, pul mablag'lari, davlat daromadiga o'tkazilishi lozim bo'lgan mulk hisoblanadi.

Mol-mulkni olib qo'yish ushbu nizomning 2-bandida ko'rsatilishicha, vakolatli organ mansabdor shaxsi tomonidan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va asoslarda amalga oshiriladi.

Mol-mulkni olib qo'yish to'g'risida vakolatli organ mansabdor shaxsi tomonidan protokol tuziladi, unda quyidagilar ko'rsatilishi kerak: a) tuzilgan vaqti va joyi; b) protokolni tuzgan shaxsning lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi; v) mol-mulk egasi va mol-mulk olib qo'yilgan shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar (familiyasi, ismi, otasining ismi, manzili, pasportiga oid ma'lumotlar va shu kabilar), ularni aniqlash imkoniyati bo'lmagan hollar bundan mustasno; g) mol-mulkni olib qo'yishda ishtirok etgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar, agar ular bo'lsa; d) huquqbuzarlik sodir etilgan joy, vaqt va uning mazmuni; ye) mazkur huquqbuzarlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi normativ hujjat; j) huquqbuzarning tushuntirish xati; z) olib qo'yilayotgan har bir buyumning nomi va miqdori, uning o'ziga xos belgilari (og'irligi, uzunligi va boshqalar); i) olib qo'yilayotgan mol-mulkning saqlanishi ta'minlanishi, shu jumladan ham buyumlarning o'zini, ham ular vaqtincha saqlanayotgan joyni muhrlab qo'yish, agar bu ishlar amalga oshirilgan bo'lsa¹.

Mol-mulk olib qo'yilgandan keyin vakolatli organ mansabdor shaxsi tomonidan bir sutka muddatda mol-mulkni: saqlash uchun mas'ul shaxsni

¹ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – № 12. – 2004. – 144-модда.

belgilagan holda vakolatli organning binolari, maydonlari, omborlarida; talab qilinadigan omborlarga, asbob-uskunalar va mol-mulkni mas'uliyat ostida saqlash normalariga muvofiq sharoitlarga ega bo'lgan boshqa korxonalar va tashkilotlarning binolari, maydonlari, omborlarida saqlash uchun joylashtirish masalasi hal qilinadi.

Milliy yoki xorijiy valyutadagi olib qo'yilgan naqd pul mablag'lari (ashyoviy dalillar sifatida e'tirof etilgan pul mablag'lari bundan istisno) uni olib qo'ygan organning milliy yoki xorijiy valyutadagi talab qilib olinadigan maxsus depozit hisob raqamiga o'tkazish uchun uch kun muddatda bankka topshirilishi kerak.

Mol-mulkni saqlash uchun mas'ul bo'lgan shaxslar (tashkilotlar) uni saqlash shartlariga rioya etishga va tegishli shart-sharoitlarni ta'minlashga majburdirlar hamda mol-mulkning buzilishi, shikastlanishi, o'zlashtirilishi, kamomadi, yashirilishi va yo'q qilinishi uchun to'liq moddiy javob beradilar va boshqacha javobgarlikka tortiladilar.

Saqlash uchun qabul qilish-topshirish vakolatli organ mas'ul mansabdor shaxsining hamda mol-mulkni saqlashga qabul qilgan shaxsning imzolari bilan tasdiqlangan uch nusxadagi mol-mulk ro'yxati bilan rasmiylashtiriladi.

Mol-mulk saqlashga topshirilguncha uning saqlanishi uchun mas'uliyat mol-mulkni olib qo'ygan vakolatli organning mansabdor shaxsi zimmasiga yuklanadi.

Olib qo'yilgan mol-mulkni hamda uning sudga taqdim etilishi bo'yicha harakatini hisobga olish "Davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulkni olib qo'yish, sotish yoki yo'q qilib tashlash tartibi to'g'risida"gi nizomga 1-ilogada keltirilgan shaklda ta'sis etilgan organ tomonidan amalga oshiriladi.

Soliq organlari davlat daromadiga o'tkazilishi kerak bo'lgan, unga nisbatan olib qo'yish to'g'risida qaror qabul qilingan mol-mulk hisobini uni sotishdan pul mablag'lari tushishigacha yoki mol-mulk yo'q qilib tashlanguncha yuritadilar.

IIV va prokuratura tergov organlarida ashyoviy dalillarni saqlash tartibi №17.13 sonli “Ashyoviy dalillarni saqlash va hisobini yuritish tartibi to’g’risida”gi ichki buyruq bilan tartibga solinadi.

Ushbu paragrafimizga xulosa qilar ekanmiz, ayrim tavsiyalarni shakllantirishimiz maqsadga muvofiq bo’lib, ular kelgusida surishtiruv va dastlabki tergov organlarida dalillarni to’plash va saqlash bo’yicha faoliyatini yanada takomillashtirishga oid amaliy munosabatlariga daxldor masalalarni tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi: - surishtiruv va dastlabki tergov organlari tomonidan aniqlanishi lozim bo’lgan hych bir holat (shu jumladan, javobgarlikning darajasi va xarakteriga ta’sir etuvchi holatlar) tergovchi tomonidan rad etilishi yoki sud tergoviga qadar kechiktirilishi mumkin emas; - ashyoviy dalillar ish qoshida saqlanishi lozim (bunday imkoniyat mustasno etilgan hollardan tashqari); - ashyoviy dalillarni to’plash, saqlash va tekshirish prosessual hujjatlarda ifodalanishi shart, ularning mavjudligi va mazmuni qonun bilan belgilangan qoidalarga rioya etilganligidan dalolat berishi lozim.

Dalillarni to’plash jinoyat prosessining barcha bosqichlarida amalga oshiriladi, bunda qo’lga kiritilgan ma’lumotlar tegishli taomillarga rioya etgan holda faktik ma’lumotlar o’z sifatini jinoyat prosessining keyingi bosqichlariga ham saqlab qolgan holda dalil bo’ladi.

Bizning fikrimizcha, dalillarni to’plashni dastlab dalillarni, aniqrog’i, daliliy axborotni tashuvchilarsiz aniqlashsiz amalga oshirishning imkoni mavjud emas. Bunda so’roq qilinishi lozim bo’lgan shaxslar, predmet va hujjatlarning joylashgan manzili dalillarni to’plashda muhim yo’llanma bo’lib xizmat qiladi.

Dastlabki tergov jarayonida tergovchi, u ma’lum bilimlarga ega bo’lganligi bois o’ziga zarur bo’lgan mutaxassis yoki ekspert o’z faoliyatida qo’llaydigan har qanday qurilma va texnik vositadan foydalanishi mumkin. Tergovchi faqatgina ashyoviy dalillar saqlab qolinishini xavf ostiga qo’yuvchi faoliyat bilan shug’ullanmasligi lozim. Aks holda, bu isbotlash ahamiyatiga ega bo’lgan obyektning yo’qolishiga sabab bo’lishi mumkin zero, bunday holda ekspertiza

o'tkazish ham mumkin bo'lmaydi. Keltirilgan tadqiqotlar natijalari ular ko'zdan kechirish yoki eksperiment doirasidan chetga chiqqanligi bois isbotlash ahamiyatiga ega bo'lmaydi hamda dastlabki tergov organlari uchun "yo'naltiruvchi" ahamiyat kasb etadi.

3.3. Surishtiruv organlarining qidiruv faoliyati

JPKning 339-moddasi 3-bandi surishtiruv organlariga, jinoyat sodir etishda gumon qilinganlarni ushlash va yashiringan gumon qilinuvchilarni hamda ayblanuvchilarni qidirib topish vazifasini yuklagan.

I. F. Крылов va A. I. Бастрыкинlarining fikricha jinoyat ishlari yuzasidan tergov yuritilayotganda qidiruv uch harakatlar ko'rinishida olib boriladi. 1) tergov harakatlari; 2) qidiruv harakatlari; 3) tezkor-qidiruv tadbirlari¹.

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, JPKning 339-moddasi 3-bandidakeltirilgan vazifa barcha surishtiruv organlariga emas balki, faqat ayrim xususan IIV tizimidagi hamda Milliy xavfsizlik xizmatining maxsus qidiruvni amalga oshiruvchi organiga tegishlidir.

JPKning 365-moddasiga muvofiq, tergovchi faqat ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilinishi to'g'risida qaror chiqarilgan shaxsga nisbatan qidiruv e'lon qilishga haqli. Ushbu moddada nazarda tutilgan qoida gumon qilinuvchiga nisbatan qidiruv e'lon qilinishi mumkin emasligini belgilaydi. Demak, JPKning 339-moddasi 3-bandida nazarda tutilgan "yashiringan gumon qilinuvchilarni ... qidirib topish" degan jumla JPKning 365-moddasiga zid hisoblanadi, shuning uchun JPKning 339-moddasi 3-bandida nazarda tutilgan "yashiringan gumon qilinuvchilarni ... qidirib topish" degan jumlaning chiqarib tashlash lozim.

JPKning 399-moddasi jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayinlash masalasini hal qilish chog'ida ayblanuvchining yashiringanligi ma'lum bo'lib

¹И. Ф. Крылов, А. И. Бастрыкин Розыск, Дознание, Следствие. Учебное пособие. – Ленинград: Издательство Ленинградского Университета, 1984. – С. 7.

qolsa, sudya ushbu ayblanuvchiga nisbatan ishni yuritishni to'xtatish va unga nisbatan qidiruv e'lon qilish to'g'risida ajrim chiqaradi.

Qidiruv faqat ayblanuvchiga nisbatan e'lon qilinadi. Biroq, ayblanuvchi sudda sudlanuvchi deb yuritilganligi bois, JPKning 420 moddasiga muvofiq, sud yashiringan sudlanuvchini qidiruv sud ajrimi bilan e'lon qiladi.

Bundan tashqari, JPKning 382-moddasi prokurorning vakolatlari sirasiga “surishtiruv organlariga shaxslarni ushlash, majburiy keltirish, qamoqqa olish, qidirish, tintuv o'tkazish, olib qo'yish, boshqa tergov harakatlarini bajarish to'g'risidagi qarorlarni ijro etishni topshiradi, shuningdek prokuror yoki prokuratura tergovchisi qo'lidagi ishlar yuzasidan jinoyatlarni ochish va jinoyat sodir etgan shaxslarni aniqlash uchun zarur choralar ko'rish to'g'risida ko'rsatmalar beradi”.

Sud va ayrim huquqni muhofaza qiluvchi organlari o'rtasida o'tkazilgan so'rov shuni ko'rsatdiki, jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari ichida sud, prokuratura va dastlabki tergov organlari surishtiruv organlari xususan milisiyaning jinoyat-qidiruv organlariga jinoyat sodir etishda gumon qilinganlarni ushlash va yashiringan gumon qilinuvchilarni hamda ayblanuvchilarni qidirib topishga oid ko'rsatma topshiriqlar beradi.

Yuqorida keltirib o'tilgan asosga ko'ra, JPKning 339-moddasida keltirib o'tilgan vazifa barcha surishtiruv organlariga tegishli emas, chunki JPKning 38-moddasida sanab o'tilgan to'qqizta surishtiruv organidan faqat bittasi milisiya bunday vazifani amalga oshiradi.

Demak, JPKning 339-moddasida keltirilgan surishtiruv organlari vazifalaridan uchinchi badda sanab o'tilgan “3) jinoyat sodir etishda gumon qilinganlarni ushlash va yashiringan gumon qilinuvchilarni hamda ayblanuvchilarni qidirib topish” jumlaning chiqarib tashlash lozim.

Jinoyat prosessida ayblanuvchining o'rni kattadir. Ayblanuvchining jinoyat prosessida hozir bo'lmasligi bir qator huquqiy oqibatlar keltirib chiqaradi: 1)

ayblanuvchining ishtirok etmasligi dastlabki tergovni to'xtatishga asos bo'ladi; 2) ayblanuvchi topilmas ekan, jinoyat prosessi harakatdan to'xtaydi.

Dastlabki tergov JPKning 364-moddasiga muvofiq, 1) ish bo'yicha ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilinishi lozim bo'lgan shaxs aniqlanmagan; 2) ayblanuvchining qayerda ekanligi noma'lum bo'lgan; 3) ayblanuvchi O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketgan, basharti uning tergovga kelishini ta'minlash imkoniyati bo'lmasa; 4) ayblanuvchi ishni yuritishda uning ishtirok etishini istisno etadigan og'ir va davomli, lekin davolab bo'ladigan kasallikka chalingan hollarda to'xtatiladi.

JPKning 364-moddasi 1, 2, 3-bandlarida nazarda tutilgan asoslarni faqat surishtiruv organlari aniqrog'i milisiyaning jinoyat qidiruv bo'limi bartaraf etish huquqiga ega. Ayblanuvchini qidirib topish aynan shu organ tomonidan amalga oshiriladi.

Surishtiruv organlarining qidiruv faoliyatiga to'xtalar ekanmiz, ta'kidlash lozimki, O'zR JPKda ushbu organlarning barcha prosessual faoliyati aniq sanab o'tilmagan. Chunonchi, O'zR JPKga muvofiq sud (399, 420-m.), prokuror (382-m.), tergovchi (343, 367-m.) qidiruv tadbirlarni faqat surishtiruv organlari orqali amalga oshiradilar. Shunday ekan, O'zR JPKda qidiruv harakatlari yuritishni surishtiruv organlari jinoyat-prosessual faoliyati doirasiga kirishini belgilash lozim. Shu o'rinda alohida ta'kidlashimiz lozimki, surishtiruv organlarining barchasi ham qidiruvni amalga oshira olmaydi, qidiruv IIV tizimidagi maxsus qidiruvni amalga oshiruvchi organ tomonidan amalga oshiriladi, shunday ekan O'zR amaldagi JPK 365-moddasini quyidagicha to'ldirish maqsadga muvofiq: "tergovchi, prokuror, sudya tegishli surishtiruv organiga yo'qolgan shaxsni, jinoyatni sodir etgan shaxsni qidirishni topshiradi va ko'rilgan chora haqida xabar beradi".

O'zR JPK 365-moddasi qidiruv e'lon qilish deb nomlansada, u yerda surishtiruv organlari haqida so'z yuritilmagan. Bu borada ba'zi xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish o'rinlidir. Jumladan, Ozarbayjon JPK 86.4.5.-moddasida "surishtiruvchi tegishli surishtiruv organiga jinoyatni ochish, yo'qolgan shaxsni

yoki mulkni qidirish maqsadida tezkor-qidiruv choralarini olib borishni topshirishi” ko’zda tutilgan bo’lsa, Qirg’iziston JPK 223-moddasida ham bu holat aniq tartibga solingan.

3.4. Surishtiruv organlari tomonidan jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy ziyon qoplanishini ta’minlash muammolari

Barchamizga ma’lumki, har qanday jinoyat mulkiy, jismoniy yoki ma’naviy zarar yetkazadi. V.Pecherskiyning fikricha, jinoyat ishi materiallari, ayblovdan tashqari jinoyat natijasida yetkazilgan zarani qoplash hujjatlarini ham o’zida mujassam etadi. Bu amalda fuqaroviy da’vo instituti orqali amalga oshiriladi¹.

Jinoyat prosessida fuqaroviy da’vo instituti jabrlanuvchining huquqlarini amalga oshirishni ta’minlash kafolatlaridan biri hisoblanadi. Mazkur institut O’zR JPK 275-moddasiga muvofiq jabrlanuvchiga bevosita jinoyat tufayli yoki aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi natijasida yetkazilgan mulkiy, jismoniy yoki ma’naviy ziyonni qoplashga qaratilgan.

Mustaqillik davrida barcha sohada bo’lgani kabi sud-huquq tizimidagi islohotlar ham beqiyos ahamiyatga ega. Bu islohotlardan ko’zlangan asosiy maqsad-fuqarolarning huquq va qonun bilan qo’riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishning mustahkam mexanizmini shakllantirish hamda ularga yetkazilgan mulkiy va ma’naviy ziyonni to’la qoplashni ta’minlashdan iborat. O’zR JPKning beshinchi bo’limi ham aynan ushbu masalalar yechimiga bag’ishlangan bo’lib, mazkur bo’limda “jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplash” masalalari atroflicha yoritilgan. Ma’naviy zararni qoplash institutining maqsadi shaxs daxlsizligini muhofaza qilish hisoblanadi².

Jinoyat prosessida fuqaroviy da’voni ko’rib chiqish asosida yagona yuridik fakt yotadi. Jinoyat oqibatida mulkiy va ma’naviy zarar yetkazilgan bo’lsa, jinoyat

¹ Интернет веб манзили: <http://www.justbel.info/2005-10/art12.htm>

² Фомченков А. Компенсация морального вреда, причиненного преступлением. // Законность. – Москва, 2005. – № 6. Интернет манзили: <http://subscribe.ru/archive/law.trudpravo/200610/29050535.html>

sodir etganligi uchun shaxsni jinoiy, fuqaroviy-huquqiy javobgarlikka tortilishi tushuniladi¹.

Sud tomonidan jinoyat ishi va fuqaroviy da'voni birlashtirib ko'rilishi ish holatlarini to'liq, har tomonlama o'rganilishiga, shuningdek sud ishlarida aynan bir ishning qayta-qayta ko'rilishiga barham beradi².

Oddiy fuqaro jinoyatni fosh qilinishidan ko'ra unga yetkazilgan zararni qoplanishidan ko'proq manfaatdor bo'ladi. Darhaqiqat, garchand, jinoyatlarning fosh qilinishi jinoyatchilikning oldi olinishi va pirovardida uning kamayishiga xizmat qilsada, jabrlanuvchining qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish e'tibordan chetda qoladi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, ushbu masala bo'yicha qonun chiqaruvchi asosiy ma'suliyatni surishtiruv organlari zimmasiga yuklagan. Xususan, JPK 339-moddasi 4-qismiga e'tibor beradigan bo'lsak, bu yerda "jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy ziyon qoplanishini ta'minlash" degan tushunchaga duch kelamiz. Demak, surishtiruv organlariga jinoyatni oldini olish va unga yo'l qo'ymaslik, dalillarni to'plash va saqlash, jinoyat sodir etishda gumon qilinganlarni ushlash va yashiringan gumon qilinuvchilarni hamda ayblanuvchilarni qidirib topish kabi vazifalarni bajarish bilan bir qatorda jinoyat tufayli yetkazilgan mulkiy ziyon qoplanishini ta'minlash singari mas'uliyatli vazifa ham yuklatilgan.

Surishtiruv organlari mazkur vazifalarni kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini amalga oshirish bilan bajaradilar va bunda mulkiy ziyonni qoplash masalasini hal qilishda oxirgi nuqtani sud qo'yadi. Jinoyat ishlari ko'rilayotgan sud majlisida mulkiy ziyonni qoplash masalasi, asosan, fuqaroviy da'vo kiritish tartibida ko'rib chiqiladi.

Shu o'rinda, jinoyat sudida fuqaroviy da'vo masalalarini hal qilinishining quyidagi afzalliklarini keltirib o'tsak: 1) Jinoyat ishlarini yuritish davrida fuqaroviy da'voni qondirish masalasini hal qilishda fuqaroviy da'vogardan boj

¹ Гурвич М.А. Учение об иске. – М., 1981. – С. 7.

² Учебник уголовного процесса. / Отв. ред. А.С. Кобликов. – М.: Спарк, 1995. – С. 117.

undirilmaydi; 2) Jinoyat ishlarini yuritishda fuqaroviy da'vo masalasini jinoyat ishi bilan birga hal qilinishi kelgusida mulkiy ziyon ko'rgan shaxslarni ortiqcha sarf xarajatdan, sarson-sargardonlikdan va kelgusida fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarga murojat qilinishini oldini oladi; 3) Bir tomondan jinoyat prosessida fuqaroviy da'vo bu – komplekslashgan jinoyat-prosessual huquqiy institut hisoblanadi va bu o'zida jinoyat sudlov ish yurituvda jinoiy mulkiy oqibatlar yuzasidan va o'zida jinoyat va fuqarolik prosessida fuqaroviy huquqiy munosabatlarning birligi asosida fuqarolik prosessual tartibga solish metodlarining elementlaridir va bu ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalar majmuidir. Boshqa tomondan esa bu – jinoiy ish yurituvda fuqaroning yoki yuridik shaxslarning ayblanuvchiga yoki ayblanuvchining xarakatlari uchun mulkiy javobgarlikni o'z zimmasiga olgan shaxslarga jinoyat oqibatida yetkazilgan mulkiy va ma'naviy zararni qoplash xaqidagi talabidir.

Surishtiruv jarayonida fuqaroviy da'vo bo'yicha ish yuritish O'zR JPKda nazarda tutilgan tartibda olib boriladi. Fuqaroviy da'vo bo'yicha yuzaga keladigan prosessual munosabatlar O'zR JPK bilan tartibga solinmagan bo'lsa, unda jinoyat prosessi prinsiplariga xilof bo'lmagan fuqaroviy-prosessual qonun hujjatlarining qoidalari qo'llaniladi (O'zR JPK 280-m.).

Surishtiruv organlari tomonidan jinoyat tufayli yetkazilgan mulkiy ziyon qoplanishini ta'minlash hukmning fuqaroviy da'voga va boshqa mulkiy undirishlarga doir qismining ijrosini ta'minlash uchun gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki fuqaroviy javobgarning mol-mulkini xatlash bilan amalga oshiriladi. Mulkni xatlash surishtiruvchi qarori bo'yicha amalga oshiriladi. Surishtiruvchi hukmning mulkiy undirish yoxud mulkiy yo'sindagi jazo qismini ijrosini ta'minlovchi choralarni ko'rmagan taqdirda, ishni yuritayotgan sud unga bunday choralarni ko'rish majburiyatini yuklaydi (O'zR JPK 290-m.).

Hukmning va tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash to'g'risidagi ajrimning fuqaroviy da'voni qanoatlantirishga, shuningdek boshqa mulkiy

undirishlarga oid qismi fuqaroviy-prosessual qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ijro etiladi (O'zR JPK 286-m).

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligidan so'ng qabul qilingan Jinoyat-prosessual kodeksida surishtiruv organlari vazifalariga avvalo, jinoyatchilik va uni oldini olish, jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy zararni qoplash vazifasi yuklangan bo'lib, bundan ko'zlangan asosiy maqsad, jinoyat natijasida mulkiy ziyon ko'rgan shaxs, korxona, muassasa, va tashkilotlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish va ularga yetkazilgan mulkiy ziyon qoplanishini ta'minlashdir.

Surishtiruv organlari huquqni muhofaza qilish organlari sirasiga kirganligini inobatga oladigan bo'lsak, qonun chiqaruvchi tomonidan ularga bunday ma'suliyatli vazifaning yuklanishi oqilona qaror deb o'ylaymiz.

Yuridik adabiyotlarda ushbu institutga barham berish xaqida fikrlar ham mavjud¹. Jinoyat prosessida fuqaroviy da'voning ko'rib chiqilishiga qarshi bo'lgan olimlardan V.Bozrov o'z fikrlarini quyidagilar bilan asoslaydi: 1) fuqaroviy da'vo bo'yicha ish yuritish jinoyat prosessining mohiyati va tabiatiga mos kelmaydi hamda jinoiy javobgarlikka tortish va undan ozod qilishning qonun bilan belgilangan tartibiga taalluqli emas, ya'ni fuqaroviy da'vo jinoiy javobgarlikni nazarda tutmaydi; 2) barcha fuqaroviy huquqiy nizolarda bo'lgani kabi fuqaroviy da'vo bo'yicha ish yuritishda ham ayblilik prezumpsiyasi qo'llaniladi. Ya'ni fuqarolik sudida fuqaroviy da'vog'ar o'zi talab qilayotgan da'voni isbotlab berishi lozim. Jinoyat prosessida esa, aksincha, aybsizlik prezumpsiyasi mavjud bo'lib, bunga ko'ra aybdor o'z aybsizligini isbotlashga majbur emas va ayb sud qarori bilan qonunda belgilangan tartibda isbotlanmaguncha, shaxs aybsiz hisoblanadi; 3) jinoyat prosessida jinoyat ishi bilan birga fuqaroviy da'voning ko'rib hal qilinishi birmuncha kengroq prosessual-huquqiy reglamentni talab qiladi (qonunchilik texnikasi nuqtai nazaridan bu muayyan qiyinchiliklar tug'diradi). Qolaversa,

¹ Бозров В. Гражданский иск в уголовном процессе неуместен. // Российская юстиция. – Москва, 2001. – № 5. – С. 29.

jinoyat ishlari bo'yicha shug'ullanuvchi sudyalarning fuqarolik – prosessual qonun hujjatlariga murojaat qilib, shu asosda hukm chiqarishga majbur bo'lishadi. Bu holat, albatta, ishning sifatiga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi.

Fuqaroviy da'vo institutining jinoyat prosessida ko'rib hal qilinishiga qarshi bo'lgan fikr tarafdorlari o'z pozitsiyalarini saqlash maqsadida turli xil dalillar va boshqa statistik ma'lumotlar keltirishadi. Yuqoridagi ma'lumotlar asosida ular fuqaroviy da'vo bo'yicha ishlarning juda oz qismi jinoyat prosessida ko'rib hal qilinganligi va aksariyat qismi fuqarolik sudlariga yuborilganligini xulosa sifatida aytib o'tishgan.

Bizning fikrimizcha, jinoyat prosessida fuqaroviy da'vo institutining mavjud bo'lishi jinoyat prosessual ish yurituvchi vazifalari va tamoyillariga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmaydi. Aksincha, ushbu institutning mavjud bo'lishi jinoyat natijasida jabrlangan shaxslar huquqini himoya qilish kafolatlarini qo'shimcha chora tadbirlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi JPK 1995 yildan hozirgi kunga qadar bir qator o'zgartish va qo'shimchalarni inobatga olgan holda tahlil qilganimizda, u yerda qonun ijodkorlari tomonidan qo'llanilgan bir-biriga yaqin quyidagi so'z birikmalarini uchratishimiz mumkin. 1) mulkiy ziyon; 2) moddiy ziyon; 3) mulkiy zarar; 4) ma'naviy ziyon. (Masalan “*mulkiy ziyon*” so'z birikmasi JPKda 14 marotaba: JPKning 275, 276, 277, 283, 285, 303, 304-307, 312, 313, 470, 577-moddalarida; “*mulkiy zarar*” 10 marotaba JPKning 54, 56, 154, 211, 302, 396, 398, 413, 457, 467-moddalarida; “*ma'naviy ziyon*” 4 marotaba JPKning 302, 303, 304, 313-moddalarida; “*moddiy ziyon*” bir marotaba JPKning 339-modda 4-qismida qo'llanilgan).

Ko'rinib turganidek, moddiy ziyon faqat O'zR JPKning 339-moddasida qo'llanilgan xolos. Qonun chiqaruvchi tomonidan nega aynan surishtiruv vazifalarini sanab o'tishda shunday so'z birikmasi qo'llanilganligi to'g'risida savol tug'ilishi tabiiy. Bu o'z navbatida ayrim tushunmovchilik va qonun normalarini qo'llashda bir qancha xato va kamchiliklarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

Moddiy ziyon deganda, jinoyat, shuningdek aqli naroso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi natijasida jabrlanuvchiga yetkazilgan mulkiy ko'rinishdagi ziyon tushuniladi.

Jinoyat prosessida zarar va ziyon tushunchalarini farqlashimiz lozim. Xususan, fikrimizcha, O'zR JPKda qo'llanilgan yuqorida sanab o'tilgan so'z birikmalarining aniq va barchaga tushunarli bo'lishi uchun, shuningdek qonun normalarining yanada takomillashuvini ta'minlash maqsadida JPKning 339-modda 4-qismida nazarda tutilgan "*moddiy ziyon*" so'zlarini "*mulkiy ziyon*" so'zlari bilan almashtirish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, O'zR JPK 398-moddasida sudya dastlabki tergov yuritilganda jinoyat oqibatida keltirilgan mulkiy zarar qoplanishini ta'minlash choralari ko'rilmaganligini va bunday choralar bevosita sud tomonidan ko'rilishi mumkin emasligini aniqlasa, tergovchining zimmasiga zarur choralar ko'rish vazifasini yuklaydi deyilgan, ko'rinib turganidek JPKning 398-moddasida faqatgina dastlabki tergov jarayoni va tergovchi haqida to'xtalib o'tilgan xolos, vaholanki O'zR JPKning 339-moddasi surishtiruv organlariga mulkiy ziyonni qoplash choralari ko'rish vazifasini yuklagan, bundan tashqari, jinoyat-prosessual qonunchilik jinoyat ishi yuzasidan tergov qilishning dastlabki tergov (O'zR JPKning 344-358-m.) va surishtiruv (O'zR JPK 339-343-m.) shakllarni tartibga solishi, ushbu institutning mustaqil mavjudligi haqida dalolat beradi.

XULOSA

Jinoyat prosessida surishtiruv va bu boradagi sud-tergov amaliyotini hamda statistik ma'lumotlarni tahlil qilish asosida surishtiruv organlarining jinoyat-prosessual faoliyatini takomillashtirish yuzasidan xulosa va takliflarni ilgari surildi:

1. Surishtiruv organlari jinoyat-prosessual faoliyati – bu surishtiruv organlarining huquq va majburiyatlaridan kelib chiqadigan, jinoyat-prosessual qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladigan harakatlar tizimidir.

2. Surishtiruv organlarining vazifalari: a) tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan(yashirin) jinoyatlar alomatlari haqidagi xabarni aniqlash va dastlabki tekshiruvni amalga oshirish; b) Jinoyatlar sodir etishni oldini olish va jinoyatga suiqasd qilishga yo'l qo'ymaslik; v) asoslar mavjud bo'lganda (prokuror bilan kelishilgan holda) jinoyat ishlarini qo'zgatish yoki ishni qo'zg'atishni rad qilish haqida material tayyorlash; g) kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini yoki JPKda nazarda tutilgan tartibda surishtiruvni amalga oshirish; d) tergovchiga jinoyatlarni o'z vaqtida,to'liq va xolisona tergov qilishni ta'minlashda ko'maklashishdir.

3. Surishtiruv organlari prosessual faoliyati chegaralari dastlabki tergovga nisbatan belgilanishi lozim binobarin, ushbu chegara aynan dastlabki tergov organlari funksiyalaridagi farqlardan kelib chiqadi. Shuningdek, surishtiruv va dastlabki tergov organlari o'zaro bunday faoliyat zimmasiga yuklangan davlat organlari tizimi, uni olib borishning muayyan muddati, prosessual qoidalari hamda funksiyalari bilan tubdan farqlanadi.

4. O'zR JPK 339-moddasi nomlanishini "Surishtiruvning vazifalari" emas, balki "Surishtiruv organi vazifalari" deb o'zgartirish maqsadga muvofiq. Zero, surishtiruv, surishtiruv organi faoliyatidir. Faoliyat esa, ma'lum bir vazifaning yechimiga qaratilgan bo'ladi. Shu bois O'zR JPK 339-moddasini "surishtiruvning vazifalari" deb emas, balki "surishtiruv organining vazifalari " deb nomlash ma'quldir.

5. Shuningdek, O'zR JPK 339-moddasini qayta tahrirda bayon etish lozim. Zotan, O'zR JPKning ushbu moddasida surishtiruv organlarining asosiy vazifalaridan biri tayyorlanayotgan va sodir etilayotgan yoki sodir etilgan har qanday jinoyat belgilari mavjudligini ko'rsatuvchi ma'lumot ariza va xabarlarni qabul qilish vazifasi nazardan chetda qolgan, ularni o'z vaqtida qabul qilish fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarining himoya qilinishiga hamda ular buzilishining oldini olishga xizmat qiladi.

6. Sud-tergov amaliyotini hamda xorijiy mamlakatlar qonunchiligini tadqiq etish asosida surishtiruv muddatini yigirma sutkaga uzaytirish taklifi ishlab chiqildi. Bunday amaliyot surishtiruv organlari faoliyatining samaradorligini oshiradi. Shunga muvofiq, O'zR JPK 341-moddasini quyidagi tahrirda o'zgartirish maqsadga muvofiq: "Surishtiruv jinoyat ishi qo'zg'atish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab, ishni sudga tayinlash uchun prokurorga yuborgunga qadar yigirma sutkadan oshmagan muddatda tamomlanishi lozim. Ushbu muddat surishtiruv organi boshlig'i tomonidan o'n sutkagacha o'zaytirilishi mumkin. Surishtiruv muddatini uzaytirganlik to'g'risidagi qarorning nusxasi nazoratni olib boruvchi prokurorga darhol yuboriladi".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. Rahbariy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. – T.13 – T.: "O'zbekiston", 2005. – B.188-189.
2. Karimov I.A. Mamlakatni modernizasiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. T.16. – T.: O'zbekiston, 2008. – 368 b.
3. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror riojlanishini ta'minlash – bizning oliy maqsadimiz. T.17. – T.: O'zbekiston, 2009. – 280 b.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2010 yil 27 yanvar // Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yanada yuksaltirishdir. – T.: O'zbekiston, 2010.
5. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yanada yuksaltirishdir. 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza, 2010 yil 29 yanvar // Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yanada yuksaltirishdir. – T.: O'zbekiston, 2010.
6. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2010.
7. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizasiya qilish yo'lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2010 yil 7 dekabr. Halq so'zi. 2010 yil 8 dekabr.
10. Karimov I.A. Bizning yo'limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizasiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir // Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. – "Inson va qonun" gazetasi. – 2011 yil 8 dekabr.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

- 2.1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent.: O'zbekiston, 2012.
- 2.2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2012.
- 2.3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-prosessual kodeksi. - Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2012.
- 2.4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-prosessual kodeksiga sharhlar. Mualliflar jamoasi. –Toshkent: Adolat 2009.

2.5. Armaniston Respublikasi Jinoyat-prosessual kodeksi: Internet veb manzili: <http://www.parliament.am>

2.6. Belarus Respublikasi Jinoyat-prosessual kodeksi: Internet veb manzili: <http://www.cis-legal-reform.org>

2.7. Moldova Respublikasi Jinoyat-prosessual kodeksi: Internet veb manzili: <http://www.cis-legal-reform.org>

2.8. Ozarbayjon Respublikasi Jinoyat-prosessual kodeksi: Internet veb manzili: http://nadzor.pk.ru/comments/show_article.php

2.9. Qozog'iston Respublikasi Jinoyat-prosessual kodeksi: Internet veb manzili: <http://www.cis-legal-reform.org>

2.10. Rossiya Federasiyasining Jinoyat-prosessual kodeksi: Internet veb manzili: <http://www.plyushkin.fromru.com/>

2.11. Ukraina Respublikasi Jinoyat-prosessual kodeksi: Internet veb manzili: http://nadzor.pk.ru/comments/show_article.php?

2.12. Estoniya Respublikasi Jinoyat-prosessual kodeksi: Internet veb manzili: http://nadzor.pk.ru/comments/show_article.php

2.13. O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasi to'g'risidagi (yangi tahriri) qonuni 10-modda. // Xalq so'zi gazetasi. –29 avgust. –2001.

2.14. O'zbekiston Respublikasining “Davlat bojxona xizmati to'g'risida”gi qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi. - 1997. - №9. - 230-modda.

2.15. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi bilan Rossiya Federasiyasi Davlat bojxona qo'mitasi o'rtasida kontrabanda va bojxona qoidalarini buzishga qarshi kurashda hamkorlik qilish to'g'risida bitim. // “Norma” huquqiy axborot tizimi.

2.16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yilning 1 noyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud Departamentining sud qarorlarini ijro etish, moddiy-texnika jihatdan va moliyaviy ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-722 sonli Qarori // “O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami”, 2007 yil, 45-son, 451-modda.

2.17. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004 yil 24 sentyabrdagi “Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-prosessual qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida”gi qarori.

2.18. O'zbekiston Respublikasining “Tezkor-kidiruv faoliyati tugrisida”gi konuni. Toshkent, 2012 yil 25 dekabr, URK-344.

2.19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ijtimoiy muxofaza kilishni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari tugrisida”gi Farmoni. T. 2012 yil, 2 avgust.

III. Maxsus adabiyotlar:

3.1. Jinoyat prosessi. Maxsus qism. Darslik. Inog'omjonova Z.F. umumiy tahriri ostida -T.: TDYuI, 2003. – 380 b.

- 3.2. Jinoyat prosessi (umumiy qism). / Z.F.Inog'omjonovanning umumiy tahriri ostida. -T.: Yangi asr avlodi, 2009. -383 b.
- 3.3. Jinoyat prosessi darsligi (maxsus qism). / Z.F.Inog'omjonovanning umumiy tahriri ostida. -T.: TDYuI, 2009. -380 b.
- 3.4. Inog'omjonova Z.F. Jinoyatprosessida sud nazorati konsepsiyasi. / Mas'ul muharrir: G'.A. Abdumajidov –O'zbekiston Respublikasi fan arbobi, yuridik fanlari doktori, professor. –T.: TDYuI nashriyoti, 2006. -87 b.
- 3.5. Inog'omjonova Z.F., To'laganova G. Z. Jinoyat prosessi muammolari. O'quv qo'llanma./ yu.f.d., prof. Abdumajidov G'.A. umumiy tahriri ostida.-T.: TDYuI nashriyoti, 2006. -201. B.
- 3.6. Internet manzil: <http://nadzor.pk.ru;>
- 3.7. Internet manzil: <http://www.cis-legal-reform.org>
- 3.8. Internet manzil: <http://www.justbel.info/2005-10/art12.htm>
- 3.9. Internet manzil: <http://iuaj103.valuehost.ru/>
- 3.10. Internet manzil: <http://kalinovsky-k.narod.ru/>
- 3.11. Karaketov Y., Usmonaliyev M. Jinoyatchilikka qarshi kurashning kriminologik choralari. - T.: O'zbekiston, 1995. – B.4 .
- 3.12. Muxitdinov F.M. Jinoyat prosessi: mohiyat, mazmun, shakl. - T.: Adolat, 2002. – B. 128 .
- 3.13. Po'latov Yu.S., Xidoyatov B.B. Surishtiruv va dastlabki tergov bosqichida jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etish. O'quv qo'llanma. –T.: TDYuI nashriyoti, 2005. 40-bet.
- 3.14. Rustamboyev M.X., Nikiforova Ye.N. Huquqni muhofaza qilish organlari: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik.- T.: TDYuI, 2003. -578 b.
- 3.15. O'zbekiston Respublikasining jinoyat prosessi. Darslik / B.A. Mirenskiy, A.X. Raxmonkulov, va boshq. –T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining nashirlik markazi. 2004. – 514 b.
- 3.16. Fayziyev Sh.F. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi soliq va valyutaga oid jinoyatlarga qarshi kurash Departamenti va uni takomillashtirish muammolari. // Davlat va huquq. №5-son. 2006. - B.32-35.
- 3.17. Fayziyev Sh. F. Jinoyat prosessida surishtiruv. Ilmiy-amaliy qo'llanma. / Yuridik fanlari doktori B.H. Po'latovning umumiy tahriri ostida. - T.: TDYuI nashriyoti, 2006. - 29 b.
- 3.18. Fayziyev Sh.F. Surishtiruv organlari ish yurituv amaliyot muammolari va yechim. // Huquq va burch. - № 6. - 2007. - B.44-45.
- 3.19. Fayziyev Sh.F. Surishtiruv organlarining tarixiy shaklanishi va takomillashuvi masalalari. // TDYuI Axborotnomasi №2, - 2006. - B.72-74.
- 3.20. Fayziyev Sh.F. Chegarani qo'riqlash organlari hozirda surishtiruv organimi? // TDYuI Axborotnomasi №5. - 2006. - B.95-97.
- 3.21. Xidoyatov B.B. Проблемы законодателного регулирования дознания в Республике Узбекистан. Diss. kand. yurid. nauk. - Tashkent, 2002. - 150 s.

3.22. Xidoyatov B.B. Проблемы регулированиа doznaniya v Respublike Uzbekistan Avtoref. dis... kand. yurid. nauk. - Toshkent.: 2002. - 26 s.